

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**5110800 "Tasviriy sa‘nat muxandislik grafikasi" ta‘lim yo‘nalishi
4 – bosqich "B" gurux talabasi**

SIROJIDINOVA (RAXIMOVA) GULNORA XABIBULLO QIZI

**“MEMORCHILIKDA YOG‘OCH O‘YMAKORLIGINING
ZAMONAVIY KO‘RINISHLARDA AKS ETTIRILISHI” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Imiy rahbar:

katta o‘qituvchi. S.O. Mirzaev

ANDIJON-2015

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB	Me'morchilikda yog'och o'ymakorligining tutgan o'rni.....	6
	1.1. Me'morchilikda yog'och o'ymakorligining tutgan o'rni.....	6
	1.2. Yog'och o'ymakorlik san'atining rivojlanish tarixi.....	16
	1.3. O'zbekistonda yog'och o'ymakorligi maktablari va ularning faoliyati.....	23
II BOB	Zamonaviy me'morchilik inshootlarida yog'och o'ymakorligi qo'llanilishi	31
	2.1. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan asbob-uskunalar	31
	2.2. Zamonaviy me'morchilik inshootlarida yog'och o'ymakorligi.....	49
	2.3. Muqaddas qadamjolarida yog'och o'ymakorligining qo'llanilishi.....	53
	Xulosa.....	68
	Foydanilgan adabiyotlar.....	70

Vatanimiz kelajagi xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon ham jamiyatidagi obro‘ - e’tibori, avvalambor farzandlarimizning unib o‘sib, ulg‘ayib qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir xaqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

Islom Abdug‘aniyevich Karimov

KIRISH

Mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim tarbiyamizni takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish ishlariga katta ahamiyat berib kelinmokda.

Iqtisodiy va siyosiy sohalarining asosiy maqsadi esa yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib xayot sharoitini tashkil qilib berishdan iboratdir.

Aynan shuning uchun ham ma’naviy jihatdan barkamol rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va ma’rifatni yuksaltirish, milliy uyg‘onishlar g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodlarni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hozirgi vaqtda xalq ho‘jaligini va hayotiy jarayonlarni barcha sohalarini, iqtisodiyot, mafkura, madaniyat, ishlab chiqarishning jahon mamlakatlaridagi nufuzli o‘rinlaridan birini egallashga intilmoqda.

Respublikamiz istiqlolining dastlabki yillaridan boshlab, mustaqillikka erishuvi ko‘pgina soha mutaxassislari qatorida, me’morchilik oldiga ham mamlakat taraqqiyotida yangicha yo‘llarni belgilash masalasini qo‘ydi. Ayni paytda jamiyat hayotida muhim o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratilib, endilikda O‘zbekiston me’morshunosligi xalqaro raqobatbardosh pog‘onaga ko‘tarilayotganligini e’tirof etish mumkin.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Xalqimizning tarixiy ruhi uyg'onmoqda, ma'naviyatning ko'zi ochilmoqda, shu tufayli odamlar qalbida milliy g'urur, ona zaminga mehr-muhabbat tuyg'ulari kamol topmoqda".

So'nggi 20 yilda, O'zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatda o'ziga munosib o'rni va mavqeiga ega bo'lib, dunyo davlatlari bilan samarali va to'laonli hamkorlik va madaniy aloqalarni yo'lga qo'ymoqda. Buni shahar va qishloqlarning yangicha, ko'rkam qiyofaga ega bo'lib borayotganligida ko'rish mumkin. Qisqa muddat ichida yangi yo'nalishdagi landshaft arxitekturasini yuzaga keldi, qator yangi-yangi inshootlar bunyod etildi. Me'morchilik yangi pog'onaga ko'tarilib bormoqda.

Me'morchilikda tasviriy va badiiy vositalarni, xususan tashviqot-targ'ibotning tasviriy vositalarini qo'llash, uning badiiyligini va mafkuraviy kuchini yanada oshiradi. Mustaqillik ne'matlari bo'lmish o'zbek xalqining o'zligini anglash, asliy va azaliy qadriyatlarni tiklash, ma'naviyat asoslarini tushunib yetish jarayonlarida ulug' ajdodlar, buyuk allomalar tabarruk nomlarining tiklanishi, ularga atab haykallar, ziyoratgohlar, majmualar, maydonlar yaratish shaharsozlikda yangi yo'nalishni shakllantirdi. Tarixdan ma'lumki, me'morchilikda tasviriy va badiiy vositalarni qo'llashga katta ahamiyat berilgan.

O'rta asrlarga mansub madrasa, masjid singari imoratlar peshtoqi, gumbaz va devorlaridagi yozuvlar va devoriy suratlar orqali arxitektura vositasida zamon va jamiyat mafkurasi ifodalangan.

Me'morchilik fan va san'at turi sifatida jamiyat dunyoqarashi va siyosiy-ijtimoiy g'oyalarini o'zida ifodalab kelgan. Ayni paytda me'morchilik rivoji xalq amaliy san'ati, tasviriy san'at, haykaltaroshlik bilan o'zaro bog'liqlikda taraqqiy etganligi ma'lum. Ayniqsa, shahar muhitini bunday badiiy vositalar hamda, targ'ibot va tashviqot badiiy vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xalq amaliy san'atining yog'och o'ymakorligi san'ati yosh avlodni tarbiyalashda, ularda mehnatga oid ko'nikma va malakalar hosil qilishda, xalq hunarmandchiligining ushbu turini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq amaliy san'atidan ta'lim berishda nazariy va amaliy jihatlar yetarlicha o'rganilishi kerak. «Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi Prezidentimiz I.A. Karimov, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etmog'imiz kerak». Shu bilan birgalikda san'at yo'nalishida ta'lim berishda pedagogik jarayonni materiallar bilan boyitishning bir qator muammolari mavjudir. Xalq amaliy san'ati pedagogik jarayonda o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun o'ziga xos ahamiyatga egadir. Uning asosiy negizini mazkur pedagogik jarayonda amalga oshiriladigan hunarga va mehnat qilishga bo'lgan qiziqishni tarbiyalovchi faoliyat tashkil etadi. Shu ma'noda Respublika hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yili «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur» qabul qilindi. Unda «O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik an'analar, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan.

Bundan tashqari, istiqlol mafkurasini keng ommaga singdirishda me'morchilikda zamonaviy tasviriy va badiiy vositalarni uyg'unlashtirish, rivojlanish tamoyillari va qo'llash uslubiyatini ilmiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shunday qilib, istiqlol mafkurasini ommalashtirishda me'morchilikning tasviriy va badiiy jihatlaridan foydalanishning nazariy asoslarini tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

I BOB. ME'MORCHILIKDA YOG'UCH O'YMAKORLIGINING TUTGAN O'RNI

1.1. Me'morchilikda yog'uch o'ymakorligining tutgan o'rni

Me'morchilikda tasviriy va badiiy vositalarni, xususan tashviqot-targ'ibotning tasviriy vositalarini qo'llash, uning badiiyligini va mafkuraviy kuchini yanada oshiradi. Mustaqillik ne'matlari bo'lmish o'zbek xalqining o'zligini anglash, asliy va azaliy qadriyatlarni tiklash, ma'naviyat asoslarini tushunib yetish jarayonlarida ulug' ajdodlar, buyuk allomalar tabarruk nomlarining tiklanishi, ularga atab haykallar, ziyoratgohlar, majmualar, maydonlar yaratish shaharsozlikda yangi yo'nalishni shakllantirdi. Tarixdan ma'lumki, me'morchilikda tasviriy va badiiy vositalarni qo'llashga katta ahamiyat berilgan. O'rta asrlarga mansub madrasa, masjid singari imoratlar peshtoqi, gumbaz va devorlaridagi yozuvlar va devoriy suratlar orqali arxitektura vositasida zamon va jamiyat mafkurasi ifodlangan. Jumladan Respublikamiz hududida ham IX-XI asrlarga kelib madaniyat yana o'sa boshladi. IX asrda Samarqandning o'zi mustaqil davlat bo'lib qolishi madaniyat va san'at rivojiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bu esa xalq madaniyatiga yangi burilish yasashga olib keldi. Shu davrga kelib Abu Ali Ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Abu Rayxon Beruniy, Muxammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy kabi buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar, adabiyot va madaniyat arboblari yetishib chiqdi. Bu kabi allomalarning o'tkir zehni Buxoradagi Ismoil Samoniy maqbarasi, Termizdagi qirqqiz saroyi, Navoiy tumanidagi Mirsaid Bahrom maqbarasi, Navoiy shahri yaqinidagi Sulton Saodat ansambli va Raboti Malik karvon saroyi singari jahonga mashhur bo'lgan me'morchilik yodgorliklarini qurilishiga olib keldi. Shular va shu kabi asori-atiqalar o'sha davrlarda me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarilganligini, ular badiiy hunarmandlar tomonidan jozibador qilib bezatilganligini ko'rstadi. Ilk o'rta asrlarda saroylar shahar qal'asidan tashqarida qurilgan bo'lsa, X asrlarga kelib shahar tarkibida qurila boshlandi. Buxorada qal'a oldida, Urganchda shaharning bosh maydonida, Samarqandda esa shahristonda shunday binolar bunyod etildi. Saroy memoriligida yog'uch konstrukturalaridan keng foydalanildi. Madaniyat rivojlanib borar ekan,

ajoyib me'morchilik yodgorliklari qad rostlab borar ekan, o'z-o'zidan bunday yodgorliklarni milliy naqshinkor bezaklar bilan bezashda, shu jumladan, darvoza, ustun va ravoqlari yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. Bu esa yog'och o'ymakorligini tez sur'atlar bilan o'sib borishiga imkon yaratib beradi. Monemuntal me'morchilikda yog'och o'ymakorligi an'anaviy san'at turiga aylanib bordi. Kishini hayratga soluvchi va o'ta nafis, tabiiy qilib ishlangan yog'och o'ymakorligi namunasi XII asrga tegishli bo'lib, u Samarqanddagi Shohi Zinda devori orasidan topilganligini so'zimiz isboti sifatida aytib o'tishimiz mumkin. Shohi Zinda ansambli Afrosiyob tepaligi janubida joylashgan qabristondagi maqbaralardan hamda masjid, minora madrasadan iborat. Shohi Zinda ansambl tarixiga kiruvchi eng qadimiy binolardan biri bo'lib, XI asrda bunyod etilgan. Shu davrda mazkur maqbara yonida masjid, minora, Tamg'och Bug'roxon madrasasi, Ziyoratxona va uning tagida chillaxona qad rostlagan. Ansambl bir-biri bilan yulak orqali bog'langan uch guruh binolardan iborat:

Quyi guruhdagi binolar: Ulug'bek o'g'li nomidan qurdirgan Abdulaziz chorbog'i, unga shimoldan Davlat qushbegi madrasasi tutash, uning qarshisidagi ayvonli masjid naqshinkor qilib nafis bezaklar bilan bezatilgan. 40 bosqichli tik zinapoya o'rtalig'ining chap tomonidan ziyoratxona va qabristontondan iborat qo'shgumbazli maqbara joylashgan.

O'rta guruhdagi binolar: Amirzoda maqbarasi, Tug'li Tekin maqbarasi, Shirinbeka oqo maqbarasi, uning qarshisidagi Amir Temurning boshqa singlisi Turkon oqo maqbarasi, sakkiz qirrali maqbara, Ali Nafasiy maqbarasi kabi masjid va madrasalar mavjud.

Yuqori guruhdagi binolar: Ziyoratxona, uch qismdan ibrorat masjid, Xo'ja Ahmad maqbarasi, Tuman oqo kompleksi, yana 2 ta nomsiz maqbaraning kiraverish devorigina saqlanib qolgan xolos. Bundan tashqari Tamg'och Bug'roxon madrasasi, Amir Burundiq maqbarasi va boshqa masjid, madrasa, xonaqoxlar kiradi.

Ansambl tarkibida 20 dan ortiq inshootlar davlat muhofazasiga olingan. XIX-XX asr boshlarida ansamblning yana bir necha binolari barpo etilgan. XVIII

asrda vayron bo'lgan zina o'rnida keyinchalik 40 pog'onali g'ishtdin yangi zina qurilgan.

Fan va madaniyat, adabiyot va san'atning rivojlanib borishi buyuk sarkarda Amir Temur nomi bilan chambarchas bog'liqdir. U hukumronlik qilgan davrlarda me'morchilik bilan bir qatorda amaliy bezak san'ati ham yuksala bordi. U o'zi qurdirgan maqbara masjid, madrasa, xonaqoh va timlarni yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, naqqoshlik va koshinkorlik bilan jozibador qilib bezatdi.

XVI asrning oxiriga kelib Samarqandda o'ziga xos me'morchilik uslubi shakllandi. Oqsaroy, Ko'k Gumbaz, Shamsiddin Kulol maqbarasi, Gumbazi Saidxon, Xazrat Imom masjidi, Jahongir maqbarasi, Dor ut-tilovat, Dor us-siyosat va boshqa shular kabi me'morchilik yodgorliklari o'zining monumentalligi, jozibadorligi, naqqoshlik va o'ymakorlik san'atining o'ziga xosligi bilan hamon diqqatga sazovordir.

Amir Temur davrida Samarqandni balandligi 8 metrgacha bo'lgan devor bilan aylantirildi. Shaharni kesib o'tadigan Buxoro-Farg'ona yo'lini kengaytirib savdo rastalari, timlar qurdirdi. U o'zi istilo qilgan o'lkalardagi eng ulkan me'mor va hunarmandlarni Samarqandga olib kelishi shaharda hunarmandlarning guzar va mahallalarini vujudga keltira boshladi: Bu esa san'atning yana gurkirab rivojlanishiga, yirik-yirik shaharlarda arxetektura ansambllarini, Buxorodagi Labihovuz ansamblini vujudga kelishiga zamin yaratdi. Shu va shunaqa asoru-atiqalar an'anaviy tarzda pishiq g'ishdan bunyod etilgan, ansambllarning ichki va tashqi bezaklariga ham zo'r e'tibor berilib, san'atning keng ko'lamda rivojlanib borayotgan koshin, ganch va yog'och o'ymakorliklari bilan jozibador qilib bezatildi.

Amir Temur o'zi qurdirgan imoratlarni o'zgacha bir mehr, o'zgacha bir ishtiyoq bilan qurdirganki, buni Samarqand va Qashqadaryo vohasini bir-biridan ajratib turuvchi Turkiston tog' tizmalarida bunyod etilgan Oqsaroy me'morchilik yodgorligi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu obida 20 yil davomida qurilgan bo'lib, ko'kka viqor bilan qad rostlab turibdi. Oqsaroy ikkita yirik ravoqdan

iborat va ravoqlar 38 metrdan soʻng qubba shaklida birlashtirilgan. Har ikki arkning oraligʻi 22,5 metrni tashkil etadi.

XVI-XVII asrlarga kelib meʼmorchilikda inshootlarning koʻrinishlari yanada takomillashdi, monemuntal binolarning tarhi, qiyofasiga oʻzgartirishlar kiritildi, hunarmandlarning artellari vujudga keldi. Shu davrlarda bunyod etilgan Mir Arab madrasasi, Chashmai-Ayub, Xoʻja Zayniddin masjid-xonaqosi, Chorbakir minorasi, Sherdor madrasasi, Gavkushon minorasi, Buxoro va Toshkentda bunyod etilgan Koʻkaldosh madrasalarida oʻsha davr yogʻoch oʻymakorligining ajoyib namunalari oʻz aksini topgan.

Buxorodagi Koʻkaldosh madrasasi XVI asrning ikkinchi yarmida Aabdullaxon II ning sarkardasi Qulbobo Koʻkaldosh tashabbusi bilan bunyod etilgan. Madrasining old peshtoq ravoqidagi girih va naqshlarida nafs va jozibador qilib yogʻoch oʻymakorlik sanʼati bilan ishlangan. Hovlidagi peshtoqlar koshin va sirlangan gʻisht bilan bezatilgan. Hovli atrofida ikki qavatli 160 xujra va darsxona hamda masjid joylashgan. Tuzilishi jihatidan boshqa madrasalardan farqli oʻlaroq madrasaning ochiq ayvonli bolxonalari boʻlgan va ular turli naqshu-nigorlar bilan nafis qilib bezatilgan.

Toshkent shahridagi Koʻkaldosh madrasasi ham XVI asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan boʻlib, Toshkent hokimi Koʻkaldosh qurdirgan. Madrasaning umumiy koʻrinishi janubga qaratib qurilgan. Peshtoqi sirlangan gʻisht va girih naqshlar bilan bezatilgan boʻlib, ikki yoniga ikki qavatli xonalar tartib bilan joylashtirilgan. Darvozaxonaning chap tomonida darsxona, oʻng tomonida masjid joylashgan. Darsxona va masjid chortoq tarhli, poydevori va devorlari pishiq gʻishtdan, choklari ganch qorishmasi bilan pardozlangan.

XVIII-XIX asrlarda monemuntal binolarning ayniqsa ichki qismi koshin, tosh, yogʻoch oʻymakorligi bilan bezash davom etdi. Shu davrlarda Norbutabiy madrasasi XVIII asrning oxirida bunyod etildi. Dxaman Shohon ansambli 3 qismdan iborat:

1. peshtoq,
2. 2 ustunli ayvon-masjid,

3. Norbo‘tabiy va uning avlodlari daxmasi.

Uning yaqinida xonning onasi maqbarasi – Modiraxon daxmasi saqlangan. Peshtoqli, gumbazli bu binolar sirlangan g‘isht, koshin bilan bezatilgan.

Qo‘qon Jo‘me masjidi XIX asr boshlarida bunyod etilgan bo‘lib, Umar nomi bilan chambarchas bog‘liq. Masjid ulkan xonaqoh va uch tomoni 98ta yog‘och ustunli keng ayvondan iborat bo‘lib, ayvon shipi to‘sinlari islamiy va girih naqshlari bilan, devorlari ganch o‘ymakorligi bilan, izoralari “chaspak” uslubida bezatilgan. Ustunlari go‘zal va nafis naqshu- nigorlar bilan o‘yma bezak berilgan bo‘lib, kursisi marmardan ishlangan Masjidning yonidagi minora konus shaklda bo‘lib, tepasi olti qirrali qafasa-tuynuk va qubba bilan tugallangan. Yuqoriga aylanma zina orqali chiqiladi.

Xudayorxon o‘rdasida shaharning muhim arxitektura yodgorliklaridan, ko‘p ustunli qilib qurilgan, bo‘yama va o‘yma naqshlar bilan jozibador qilib bezatilgan jom‘e masjidi XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida qurilgan. 1914 yilda esa Komil qozi madrasasi bunyod etildi.

XVIII-XX asrlarda yana bir qator asori-atiqalar qad rostladi. Namangandagi Xo‘jamning qabri, Buxoroda Bolohovuz masjidi, Xivada Olloqulixon karvon saroyi va timi, Toshhovli, Nurillaboy saroyi, Pahlavon Maxmud maqbarasi, Buxoro yaqinida Sitorai Mohi Xosa saroyi bunyod etildi. Saroy qurilishida xalq me‘morchiligi kompozitsiya usullaridan foydalanildi. Bunda ichki hovli, hovuz, ko‘p ustunli ayvon va sinchli imoratlardan tashkil topdi.

Xiva Jum‘a masjidi XVIII asrning oxirlarida bunyod etilgan bo‘lib, masjid va minoradan iborat. Masjid tomi tekis, bir qavatli, shifti o‘yma naqshli. Ustunlar masjid qurilishiga moslab joylashtirilgan bo‘lib, kaltaroqlariga tosh poy ustun o‘rnatilgan.

Devorlari ravoqlarga bo‘linib, mehrob ishlangan. Mehrobning yuqorisi to‘rsimon, o‘yma zanjiri va kundal naqshlari bilan bezatilgan. Masjidga 214 ta ustun o‘rnatilgan bo‘lib, Xorazm xalq o‘ymakorligining boy ijodiy imkoniyatlari- dan keng-ko‘lamda foydalanib, ustunlarga nafis naqshu-nigorlar bilan ishlov berilgan. XVIII-XIX asrlarda Buxoroda bunyod etilgan Xalifa Xudoydod majmuasi

madrasa, masjid, sardoba va qabristondan iborat bo'lib, hovlisining uch tomoni bir qavatli hujralar bilan o'ralgan. Masjid to'g'ri to'rtburchak tarzida, gumbaz bilan qoplangan. Umumiy ko'rinishi ganch o'ymakorligi bilan, ustunlari esa o'yama naqshu-nigorlar bilan jozibador va nafis qilib bezatilgan. Sardobaga ikki zinapoya orqali kiriladi. Hovlining shimolidan qabristonga o'tiladi. Xalifa Xudoydod qabri yaqinida ikki ustunli, shipi bo'yama naqsh bilan bezatilgan ayvon bor.

XX asr boshlariga kelib Qo'qonda yana bir majmua qad rostladi. Bu Xalifa Tillo majmuasi bo'lib, u ikki hovli, hovuzli bog', masjid va Xalifa Tillo dahmasi joylashgan qabristondan iborat. Ular o'rtasida chegara sifatida ikki qator ustunli shiypon joylashgan Xalifa Tillo dahmasi atrofi ravoqli to'sinlar bilan berkitilgan.

Do'stu xudo masjidi Alixon eshon buyurtmasiga asosan o'sha davrning yetuk ustalaridan biri usta Yoqub boshchiligida qurilgan Tarhi teng tomonli, ustunli xona hamda ikki tomoni ayvondan iborat. Ayvonning shipidagi to'sinlari va ustunlari serhasham qilib did bilan turli naqshu-nigorlar bilan bezatilgan. Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa saroy bog'i XIX-XX asrlarda bunyod etilib, mang'itlar silolasining to'rt avlodiga, ya'ni Nasrullaxon, Muzaffarxon, Abdulahadxon, Amir Olimxonlarga mansub. Saroyning maydoni taxminan, 6,7 ga teng bo'lib, eski saroy g'isht to'shalgan 3 hovlidan va ko'pgina xonalardan iborat.

Amir Muzaffarxon mehmonxonasi o'zining kengligi, baland zali, ikki tomondagi boloxonali ayvonlari, yevropa uslubidagi eshik va derazalari bilan ajralib turadi.

Uch qismga bo'lingan to'rtburchak tarhli Abdulahadxon saroyining ikki xonasi bir-biriga qarama-qarshi joylashtirilgan va bir xilda bezatilgan.

Eski saroy sharqdagi Amir Olimxonning bosh qarorgohi – yangi saroyga muhtasham ravoqli ikki tabaqali darvoza orqali kiriladi. Ushbu ikki tabaqali darvoza yog'och o'ymakorligining o'sha davrdagi eng so'nggi bezak usullari bilan go'zal, ko'rkam va nafis qilib bezatilgan. Darvozaxonadan tashqari hovliga o'tilib, hovlining uch tomoni ayvon bilan o'ralgan. Darvozadan kirishning o'ng qo'l tomonida kichkina favvora bor. Hovlining shimolida katta ayvon, g'arbida oqsa-

roy, janubida oynabandli ayvon, kutish xonasi va amirning qabulxonasi joylashgan.

Oqsaroy bezagida sharq va yevropa me'morchiligi uyg'unlashtirilgan holda qo'llangan. Bog' o'rtasida sakkiz xonali ko'shk bor. Umuman olganda Sitorai Mohi Xosa saroy bog'i zo'r mahorat va yuksak did bilan bunyod qilingan darvoza, eshik va ustunlarni bezashda yog'och o'ymakorligidan unumli foydaliniqlan. Amaliy bezak san'atining bir qator turlarida mahalliy uslublar shakllanadi. Naqqoshlikda, ganch va yog'och o'ymakorligida islmiy naqshi rivoj topdi. Yog'och o'ymakorligida o'ymalarni bajarishning yangidan-yangi uslublari bilan ustunlar, eshiklar, ravoqlar va boshqalar jozibador qilib bezatilgan. Asrimizning boshlariga kelib Xivadagi ko'xna Ark, Toshhovli, Nurillaboy, buxorodagi Minorai Kalon, Ismoil Samoniy maqbarasi, Samarqanddagi Sherdor, Tilloqori madrasalari ta'mirlandi, Ulug'bek madrasasining qulay boshlangan minorasi qayta tiklandi.

Samarqandda joylashgan mazkur uch madrasa Registon maydonida qurilgan bir butun me'moriy yodgorliklar kompleksini tashkil qiladi. Har uch madrasaga alohida ikki tabaqali darvozalardan kirilib, o'ziga xos yog'och o'ymakorlik san'ati bilan jozibador qilib bezatilgan. Xonaga kirish eshiklari, jumladan Sherdor madrasasidagi 54 ta xujra bulib deyarli barcha eshik taxtalari yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan.

Samarqand shahrida bunyod etilgan me'moriy obidalardan yana biri Hazrati Xizr masjidi XIX asr o'rtalarida qurilgan. Bino qadimiy masjid poydevori ustiga qurilgan bo'lib, bosh ko'rinishidagi tik zinapoyadan darvozaxonaga chiqib, uncha katta bo'lmagan xonaga o'tiladi. Chapdagi ravoqli peshayvon jazibador naqshlar bilan serhasham qilib bezatilgan. Old tomonida yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan 5 ta ustunli ayvon bulib, undan xonaqoxga eshik ochilgan. Xonaqoxning ikki yonida hujralar bor. Keyinchalik binoga, ayvon va darvozaxona qurilib ajoyib naqshu-nigorlar bilan bezatilgan.

O'zbekiston hududida o'rmonlar va daraxtlar kam bo'lishiga qaramasdan amaliy san'atning yog'och o'ymakorligi ham qadimdan keng tarqalgan. Yog'och o'ymakorligida diyorimizda o'sadigan mahalliy daraxtlar ya'ni qayrag'och, tut,

archa, yong‘oq, o‘rik, tol, terak, chinorlardan keng foydalaniladi. Yog‘ochdan turli xil usullar bilan jumladan kesib, chizib, o‘yib, zaminini teshib, naqsh bo‘rtma shakllar hosil qilib, yog‘och taxtacha va bo‘laklarni bir –biriga ulab, yopishtirib xandasaviy shakllar, o‘simliksimon tasvirlar, islmiy naqshlar hosil qilinadi. Mazkur o‘ymakorlikka oid bo‘rtiq naqshlar me‘morchilikda va uy ro‘zg‘or buyumlari yasashda keng qo‘llaniladi. Yog‘och o‘ymakorligida eshik, darvoza, ustunlar, har xil to‘sin, xontaxta, sandiq, quticha va boshqa narsalar juda mohirona tarzda tayyorlanadi.

Ilk o‘rta asrlarda O‘zbekistonning ko‘pgina hududlarida yog‘och o‘ymakorligi keng tarqalgan. Arablar istilosigacha har bir xonadonda yog‘och haykallar bo‘lganligi haqida ma‘lumotlar bor. Sanamlar har bir uyning eshigining ustida turgan. Ular eskirsa yangisi bilan almashtirib qo‘yilgan. Eshik tepasida turi-shi xonadon sohiblariga yaxshi ishlar qilishini, yomon ishlardan o‘zlarini tiyishini, hech bir jonzotga ozor bermasligini eslatib turgan bo‘lsa ajab emas. Xonadon sohiblarini halol mehnat qilishga undaydigan va turmushda ma‘naviy - ruhiy quvvat beruvchi kuch hisoblangan bo‘lishi ham mumkin.

Xalqimizning yog‘och o‘ymakorligi bilan shug‘ullanishi hech qachon to‘xtab qolmagan. Bu Qusam ibn Abbos maqbarasi, Sayfiddin Boharziy maqbarasi to‘sinlari, Ruhobod maqbarasi, Amir Temur maqbarasi, Mirzo Ulug‘bek madrasasidagi va Xivadagi tosh hovli ayvonlari ustunlari va eshiklari bezaklarida ko‘zga tashlanadi. Bular asrlar osha o‘tib kelayotganligi, moddiy va ma‘naviy meros sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligining o‘zi uning muqaddas qadriyatga aylanganligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston vohalarida turlicha uslubdagi yog‘och o‘ymakorligi bo‘lib, bir-birini takrorlamaydi. Buxorolik ustalar o‘yma naqshlarni oltin va kumush suvi bilan bezaganlar, Xivada naqshning maydaligi, zaminning kamligi, o‘ynoqiligi bilan ajralib turadi va yog‘ochning tabiiylikini saqlash uchun bo‘yoqdan foydalanishadi. Boshqa vohalarda ham turlicha bo‘lgan. Bu ularning moddiy va ma‘naviy qarashlari, qiziqishlari turli xil bo‘lganligini, o‘z kasbi - kori bilan dunyoni bilishdagi, uni tasvirlashdagi va uni moddiy va ma‘naviy jihatdan boyitishdagi intilishlari samarasida yuksak san‘at asari yaratganini anglatadi.

O‘ymakor ustalar yaratgan naqsh zaminida qandaydir ramziy ma’no, ezgu tilak, orzu va go‘zal niyatlar ifodalangan. Ularning naqshlarida hatto timsol, duo – afsunlar ancha ko‘p bo‘lgan. Ish qurollarining soddaligi, texnikaviy jihatdan qoloqligiga qaramasdan, o‘zbek yog‘och o‘ymakorligi nihoyatda yuksak san’at namunalari yaratgan ajoyib amaliy kasb hunar sohiblari sifatida tanilgan. O‘zbek xalqi amaliy bezak san’atining yog‘och o‘ymakorligi namunalari xalqaro ko‘rgazmalarda muvoffaqiyat bilan qatnashib kelmoqda. 1937-yilda Parijda “San’at va texnika hozirgi kunda” degan ko‘rgazmalarda qatnashib ikkita “Gran pri”, ikkita kumush medal bilan mukofatlangan. Ikki yildan so‘ng Nyu- York bo‘lgan “Kelajak olam” ko‘rgazmasida diplomga sazovor bo‘lgan. Bundan esa ko‘rinib turibdiki o‘zbek amaliy san’ati faqat O‘zbekistonda emas, butun jahonda o‘z qadr- qimmatiga ega. O‘tgan asrlar mobaynida xalq ustalari yog‘och o‘ymakorligini turli xil yangi bezaklar bilan boyitib bordi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalarida bo‘lganidek amaliy san’atga, shu jumladan yog‘och o‘ymakorligini ham rivojlantirishga katta e’tibor bilan qaralmoqda. Muqaddas qadamjolarimiz hisoblangan Imom Buxoriy majmuasi, Imom Moturudiy majmuasi, Iso at-Termiziy va Al-Hakim at-Termiziy majmualarida yog‘och o‘ymakorligining qadimgi va hozirgi usullaridan foydalanilayotganligi ham buning yorqin isbotidir.

Yog‘och o‘ymakorligi asarlari nafaqat moddiy madaniyat shu bilan birga ma’naviy madaniyat va qadriyatdir. Muqaddas qadamjolarimizga borar ekanmiz, u yerda ma’naviy – ruhiy quvvat olamiz. Ajdodlarimiz uchun qurilgan majmualar bilan faxrlanamiz, ularga munosib voris bo‘lishga harakat qilamiz. U yerdagi amaliy bezak san’atlari zavqlantiradi, estetik olamimizni boyitadi. U yerda inson ko‘rganlari, bilganlari, his qilganlari kishi ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyg‘usiga ta’sir etib, ular ongini boyitadi, ahloq – odobini ezgulik sari yetaklaydi. Ko‘zi bilan ko‘rganlari uni go‘zallik sirlaridan bahramand qilsa, qalbi bilan his qilganlari uni iymonini qo‘zg‘atib, e’tiqodini baquvvat qiladi va insonlarni o‘z oldiga ezgu maqsadlarni qo‘yib ularni amalga oshirish uchun intilishga, harakat qilishga undaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov san’at haqida to‘xtalib

shunday fikr bildiradi: “San’at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbida yo‘l topish haqida so‘z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste’dod egasi o‘ziga xos bir olam, shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o‘rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas”. Bu bilan san’at va madaniyatning inson qalbiga va e’tiqodiga kuchli ta’sir etishini va tez kirib borishini e’tirof etadi. Ijodkor inson qalbiga yo‘l topishda o‘z qarashlari, fikrlariga ega ekanligini, ularga halaqit berib bo‘lmasligini aytib o‘tganlar.

Yog‘och o‘ymakorligi amaliy san’at sifatida inson ma’naviyati va madaniyatida samarali xizmat qiladi. Insonning botiniy va zohiriy olamiga ezgulikka, go‘zallikka intilish, ahloq-odobli, did-farosatli bo‘lishga hamda jismoniy va aqliy barkamol bo‘lishi uchun moddiy, ma’naviy, estetik ozuqa bo‘ladi. Yoshlarni mehnatsevar, tirishqoq, qobiliyatli qilib tarbiyalashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

1.2. Yog‘och o‘ymakorlik san’atining rivojlanish tarixi

Yog‘och o‘ymakorligi o‘zbek xalq amaliy bezak san’atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog‘och buyumlarga chizib, kesib, o‘yib ishlanadi. Badiiy san’atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo‘lib, qadimiy sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog‘och o‘ymakorligining rivojlanib o‘ziga hos badiiy uslublar kelib chiqqan. Shu singari O‘rta Osiyoda ham yog‘och o‘ymakorligi qadimdan rivojlanib kishilarning uy ro‘zg‘or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo‘llanilgan. Bu o‘ymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, deraza, ustunlar, har xil to‘sin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan.

VII asrning oxirigacha mahalliy o‘zbek xalqi ichida yog‘och o‘ymakorlik tez suratlar bilan rivojlangan edi.

XI–XII asrlarda xalq amaliy sa’nati yanada gurkirab rivojlandi. Murakkab naqsh turi bo‘lgan geometrik naqsh, ya’ni **girihi** naqshi bezakda yetakchi o‘rinni egalladi. Masalan XII asrga oid yog‘och o‘ymakorligi namunasi Samarqanddagi Shohi–Zinda devorining orasidan topilgan bo‘lib, u o‘zining badiiy nafis va tabiiy ishlanganligi bilan kishini lol qoldiradi.

XIX va XX asrlarda yog‘och o‘ymakorligi, misgarlik, naqqoshlik va boshqa san’at turlari rivojlanib har bir shaxarning o‘ziga hos yog‘och o‘ymakorligi paydo bo‘ldi. Qo‘qondagi Hudoyorxon saroyi, Toshkentdagi N.K.Romanovlarning saroyi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi, Marg‘ilondagi Saidaxmadxo‘ja madrasasi, Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa va boshqalarda ajoyib yog‘och o‘ymakorligi namunalari yaratildi.

O‘zbek xalqining eng ko‘zga tashlangan ustalaridan Olimjon Qosimjonov (1878-1942), Sulaymon Xo‘jaev (1866 1946), Maqsud Qosimov va boshqalar ajoyib namunalarni yaratdilar. Ular o‘ziga hos yog‘och o‘ymakorligi maktablari yaratib ajoyib shogirdlar yetishtirdilar.

Yog‘och o‘ymakorligining o‘ziga xos turi va usullari bor. Masalan: Xiva yog‘och o‘ymakorligining monumentanligi, yog‘och tabiiy rangini saqlab qolish bilan boshqalardan farqlanadi.

Buxoro yog‘och o‘ymakorligi esa o‘yma naqshning jozibadorligi, jim-jima naqshlari oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanish bilan farq qiladi. Marg‘ilon yog‘och, o‘ymakorligi chiqish zalini yassi o‘ymani qo‘llab kelgan.

Qo‘qon o‘ymakorligi esa naqshni bo‘rtmali yassi o‘yma ishlashgan. Toshkentda esa naqsh bilan qoplangan yassi bo‘rtmali, zaminsiz chizma yog‘och o‘ymakorligi keng tarqalgan.

Toshkent yog‘och o‘ymakorlik maktabi. Bu maktabga mansub ustalar o‘yma naqshlarni 1-2 qavat qilib o‘yadilar, keyingi loy ishlarida esa uch qavatli o‘ymalar bajarishga o‘tmoqdalar. Kompazitsiya jixatdan o‘rtaga chuqurlikda o‘yilib, o‘simliksimon, geometrik, gulli grix, xattoki ramziy naqshlar boshladilar. Pardoziyning xamma turlarini qo‘llaydilar. Ular ko‘pincha yong‘oq, chinor, yog‘ochlarni ishlatadilar. Toshkent ustalari relief yuzasiga ozgina rang berib reliefni o‘zini choplaydilar.

Xiva yog‘och o‘ymakorligi maktabi boshqa maktablarga qaraganda, o‘yma naqshlarning maydaligi, nozikligi, zaminining kamligi, naqshlarning zichligi hamda badiiy tuzilishi jixatidan o‘ynoqligi, ya‘ni novdalarni spralsimon ishlanib ajoyib shakllar hosil qilishi bilan farq qiladi. Xiva o‘ymakorligi ustalari ko‘pincha qayrag‘och, terak va chinor yog‘ochlarni ko‘proq ishlatadilar. Ular yog‘och rangini tabiiyligini saqlagan holda yuzasiga va zaminiga taxta, zig‘ir yog‘i beradilar. Xiva yog‘och o‘ymakorligi maktabi o‘zining monumentililigi bilan mashxurdir.

Qo‘qon va Farg‘ona yog‘och o‘ymakorligi maktabi.

Qo‘qon ustalari qoshiga, kursi, rasm va boshqalardan kalta bo‘rtmali yassi o‘ymani, kargori uslubda ishlatib kelib, arxitekturada eshik, ustunlarga yirik chuqur naqshlar o‘rnatib o‘zgacha maktab yaratdilar. Bu maktablar o‘ymalarning manumentililigi bilan farq qiladi.

Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi maktabi terak, yog‘och va bo‘k materiallaridan ko‘pincha foydalanadilar. Ustalar o‘yilgan relefning faqat yuziga to‘qroq rang berib keyin laklaydilar.

Marg‘ilon yog‘och o‘ymakorlik maktabi o‘ziga xos milliy ko‘rinishga ega bo‘lib o‘ymaning chuqur zaminli yassi qo‘llaydilar. Keyingi vaqtda Marg‘ilon ustalari binolarni yog‘och o‘ymakorligi bilan bezashda payiya ishlar qildilar.

O‘zbekistonda yog‘och o‘ymakorligi san’atining rivojlanish tarixi amaliy san’atning tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulg‘ayib borgan sari amaliy san’at ham yuksala bordi. Yashash uchun kurash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun ehtiyoj kuchayib borishi jarayonida qo‘l mehnatidan aqliy mehnat ajralib chiqa boshladi. Ov qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlariga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib bordi. Avvalo tosh o‘ymakorligi, suyak o‘ymakorligi keyinchalik esa yog‘och o‘ymakorligi ham sekin-astalik bilan o‘z rivojini topdi.

Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Bu esa fan va san’at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san’at va san’atkorlar shu davrlarda paydo bo‘ldi. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag‘lubiyatlari ularning asarlarida o‘z ifodasini topib bordi. Har bir davrda mavjud bo‘lgan ana shunday san’at va san’atkorlar hayot go‘zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarini kamol toptirib bordi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik va yorqin kelajakka intilish yo‘lidagi kurashga da’vat etdi.

Arxeolik qazish ishlari natijasida Surxon vohasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgan yog‘och o‘ymakorligi topilmalari mazkur joylarda, bir yarim ming yil muqaddam san’atning bu turini yaxshigina rivoj topganligini olimlarimiz o‘z izlanishlarini mahsuli sifatida isbot etib berishdi. Hali-hanuz bunday noyob topilmalar nafaqat Surxon voxasida, balki Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Farg‘ona vodiysidagi So‘g‘d va boshqa qadimiy shahar, qishloqlardan V-VI asrlarga tegishli bo‘lgan san’at asarlari topilmoqda.

Samoniylar davrida amaliy bezak san'ati, ayniqsa kulolchilik, shishasozlik va yog'och o'ymakorligi, rivojlandi. Monumental me'morchilikka katta e'tibor berildi, turar joylar, hunarmandchilik ustaxonalarida, saroylar, ma'muriy binolar, savdo rastalari, hammomlar, madrasalar qurildi. Qurilishda asosan pishiq g'ishtdan foydalanildi, ba'zan bino devori xom g'ishtdan, tomi-gumbaz pishiq g'ishtdan ishlandi. Binolar ko'rkam va chidamli bo'lishiga e'tibor qaratildi, bor ilm va kuchlarini safarbar etdi.

Samoniylar maqbarasi planidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib va prinsip asosida yaratilganligi aniqlandi. Maqbara memoriy geometriya va matematikadan chuqur xabardor bo'lganligi shubhasizdir, aks holda, u bunchalik go'zallik me'yorini topalmasdi. Ehtimol tasodif dersiz. Yo'q tarix taqozosi bu Algebra faniga asos solib, logarifm, algoritm so'zlariga nomi yug'rilgan Muhammad Xorazmiy (787-850) me'morchilikka ta'sir ko'rsatgan mutafakkir olim Abu Nasr Farobiy (870-950) amaliy geometriya sohasidagi risolalari me'morlar uchun qo'llanma vazifasini o'tagan. Koinot bo'yicha tekshirish olib borgan, astronomiya, geometriya va trigonometriyaga oid risolalar muallifi Abu Rayhon Beruniyning memorchilikka xissa qo'shgani shubhasizdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, arxitektura bilan bog'liq amaliy matematika va geometriya doimo me'morlar e'tiborida bo'lgan.

VII-VIII asrlarning boshlariga kelib ko'shk, qo'rg'onlar, shaharlarga ibodatxonalar va saroylar qurildi. Bu davrda yog'och va ganch o'ymakorligi yanada rivoj topdi, devoriy rasmlar rang-barang bo'lishiga e'tibor qaratildi, buni Afrosiyob, Varaxsha va Yumaloq tepa singari madaniy yodgorliklarimiz misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bu kabi san'at asarlari, so'g'diylar madaniyati bizga, o'sha davrlarda jumhuriyatimiz hudidida yashagan xalqlar qo'shni xalqlar bilan savdo-sotiq olib borgan, bu esa bizga qo'shni xalqlar bilan ham madaniy aloqada bo'lgan deyish imkonini beradi.

Arablar VII-VIII asrlarda ibodatxonalarni, tasviriy san'at asarlarini yo'q qilib tashladilar. Natijada sal kam bir asr tushkunlik hukm surdi.

Arablar O'rta Osiyoni zab etkunlari qadar mahalliy xalq ma'budalari topilgan. Har bir xonodoning jamoada tutgan o'rni va boyligiga qarab, o'z ma'budasi (xudosi) bo'lgan. Odatda bu ma'buda eshik tepasiga qo'yilgan. Xonodon sohibi mavridi bilan yog'ochdan o'yilgan yangi ma'budani xarid qilib, almashtirib turgan. Bunday jarayon yog'och o'ymakorligi san'ati qadimiy bo'lganligidan dalolat beradi. Arablar istilosi oqibatida tasviriy san'atning ko'p turlari qatori yog'och haykallar ishlash ham butkul barham topdi. Biroq Islom dini bu san'atni tag-tugi bilan yo'qota olmadi. Yog'och tarashlovchi usta naqqoshlar o'z san'atini yog'ochda, dov-daraxtlar aksini ifodalash, oddiy chiziqlardan murakkab geometrik shakllar yasashda namoyish etdilar. Ustalarning san'ati otadan-bolaga, avloddan-avlodga meros bo'lib o'taveradi.

Islom dini kirib kelgan ilk davrlarda qabir ustiga yodgorlik qo'yish man qilingan, bu kabi qonunlarga omvoiy va abbosiylar ilk hukumronligi davrida rioya qilingan. Ammo, keyinchalik arablar jumhuriyatimiz hudidida dastlab masjidlar, qurdirdilar, qadimiy ibodatxonalarni masjidlarga aylantirdilar. Bunga misol qilib Buxoroning Moh bozoridagi ibodatxonani olib ko'rishimiz mumkin. Nihoyat arxitektura va amaliy bezak san'atida, hunarmandchilikning turli sohalarida jonlanish boshlandi. 862 yilda Al-mantasir va Fotiddin so'ng ruxoniylar fatvosi bilan «Amir al-ma'man» ga atab maqbara bunyod qilindi. So'ng Sharqning Islom tarqalgan boshqa mamlakatlarida ham shu kabi yodgorliklarni qurdirish rasm bo'ldi. IX-X asrlarda qurilgan, Buxorodagi Samoniylar maqbarasi ham shular jumlasidandir. Bu maqbara O'rta Sharqdagi eng qadimiy maqbaralardan birinchi bo'lsa, ikkinchisi esa biz yuqorida qayd qilib o'tgan Samarqand tog'larida joylashgan Tim qishlog'idagi turli naqsh-nigorlar bilan bezab ishlangan "Arab ota" – "Arab al-ma'man" ("Arablar xomiysi") maqbarasidir.

1960 yil boshlariga kelib shoir va jo'g'rofiya olimi Farg'ona pedagogika institutining professori Nikolay Lionov tomonidan kashf qilingan bu maqbaraning peshtog'iga bitilgan naqshinkor arabiy bitiklardan ma'lum bo'lishicha, bu maqbara xijriy 367, melodiy 977 yillarga tegishliligi aniqlandi.

Islom dini tirik mavjudotlarni tasvirlashni qat'iy ma'n etgani tufayli tasviriy san'at rivojiga imkon beradi, faqat amaliy bezak san'ati rivoj topdi. Masjid, maqbara, saroy, madrasalar turli-tuman naqshu-nigorlar bilan bezatila boshladi.

VIII-IX asrlarda ayniqsa Buxoroda badiy hunarmandchilik keng ko'lamda rivoj topib bordi. IX-X asrlardan girih san'ati yuksaldi. Arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko'tarildi. Masalan, shu davrlarda ko'fiy yozuvidan keng foydalanilgan bo'lsa, XI-XII asrlardan esa nasx yozuvi memorchilikda keng-ko'lamda ishlatila boshlandi.

Madaniyat rivojlanib borar ekan, ajoyib me'morchilik yodgorliklari qad rostlab borar ekan, o'z-o'zidan bunday yodgorliklarni milliy naqshinkor bezaklar bilan bezashdi, shu jumladan darvoza, eshik, ustun va ravoqlari yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. Bu esa yog'och o'ymakorligini tez sur'atlar bilan o'sib borishiga imkon yaratib berdi. O'ymakor ustalar bulardan tashqari uy-ro'zg'or buyumlarini bezashda ham o'z san'atlarini mohirona namoyish etishdi. Ustalar tomonidan turli xil stollar, kursilar, xontaxtalar, laganlar, lauxlar, sandiqlar, qutichalar, qalamdonlar va hokozalar yaratildi.

Chingizxon bosqinchiligi tufayli XIII asrga kelib madaniy hayot izdan chiqdi. O'rta Osiyodagi Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx va Mavr kabi bir qator shaharlar Chingizxon boshchilik qilgan mo'g'il bosqinchilari tomonidan ostin-ustin qilib tashlandi.

Bu vayronagarchiliklarga XIV asrning ikkinchi yarmida sarkardamiz Jomahongir Amir Temur O'rta Osiyo xalqlarini birlashtirish orqali, chek qo'ydi va halqimizning madaniyati, san'ati, shu jumladan, yog'och o'ymakorligining rivojiga o'zi qurdirgan obidalari, osor va atiqalari bilan hissa qo'shdi. Samarqandga yirik-yirik san'atkorlar, shoiru-ulomalarni, hunarmandu-ustalarni to'plab, ko'plab jo'me masjidlari, madrasalar, xonaqohlar, saroylar va boshqa ulkan inshootlar qurdirdi. Amir Temur vafotidan so'ng Temuriylar o'rtasida bo'lgan o'zaro to'qnashuvlar tufayli madaniyat rivojiga salbiy ta'sirini o'tkazdi.

XVI asrda arxitektura inshootlarning ko'rinishi yanada takomillashdi, ko'plab jamoat binolari, karvonsaroylar, ko'priklar, sardobalar, shaharlarda ham-

mom, tim va boshqa savdo rastalari qurila boshlandi. Monemuntal binolarning tarixiy qiyofalariga o'zgartirishlar kiritildi, hunarmandlarning artellari vujudga keldi. Jo'me masjidlari saroy tipidagi serhasham qilib qurildi, guzar va mahallalarga masjidlar qishlik va yozlik qilib qurilib, katta ayvonlar o'yma ustunli va eshiklari ham o'yma bezaklar bilan bezatildi.

XVII asrga kelib O'rta Osiyoda avj olgan o'zaro feodal nizo va urushlar Eronning Xivaga qilgan hujumi va boshqalar arxitetura va badiiy hunarmandchilikka salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina musavvir va hunarmandlar Hindistonga, Boburiylar saroyiga ketishga majbur bo'ldilar. XVIII asr oxirlariga kelib me'morchilik va amaliy bezak san'ati rivojlana boshladi. Saroy qurilishlarida xalq me'morchiligi kompozitsiya uslublaridan foydalanib, ichkari hovli, hovuz, ko'p ustunli ayvon, sinchli imoratlar qurila boshlandi. XVIII-XIX asrlarda binolarning ayniqsa ichki qismini koshin, tosh, ganch va yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. Bulardan misol qilib Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasi, qo'qondagi Daxman shoxon asori-atiqalarini keltirishimiz mumkin.

XX asrga qadar sa'nat asarlari turli qirg'inborot tufayli vayronalar ostida qolgan bo'lsa, shu asrga kelib «qizil ko'lanka» ostida qoldi. Xalqimizning o'qimishli, bilimdon, ziyoli farzandlarini turli sabablarni ro'kach qilib qatag'on qilishdi. Hunarmand ustalarni esa shaxsiy boylik orttirishda ayblab faoliyatlari to'xtatib qo'yildi. Biroq xalqimizning fidoiy farzandlaridan ijodkor ustalar usta Shirin Murodov, Mirhamid Yunusov, Shamsiddin G'ofurov, Yunus Ali Musaev, Usmon Ikromov, Quli Jalilov, Sulaymon Xo'jaev, Haydar Najmiddinnov, Toshpo'lat Arslonqulov, Maqsud Qosimov, Mahmud Usmonov, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Mahmud Oblaqulov, Abdulla Boltaev, Qodirjon Haydarov, Ota Polvonov, Abdurazzoq Abdurahmonov va boshqalar o'z hunar sirlarini maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda yoshlarga o'rgatishni yo'lga qo'ydilar. Keyinchalik esa o'z uslubi, yunalishiga ega bo'lgan Xiva, Samarqand, Buxora, Toshkent va Qo'qon kabi yirik yog'och o'ymakorlik maktablari rivoj topdi.

1.3. O'zbekistonda yog'och o'ymakorligi maktablari va ularning faoliyati

Xiva yog'och o'ymakorligining rivojida Ota Polvonov va Sapo Bog'bekovlarning ijodiy faoliyati alohida o'rin tutadi. Bu maktab o'ymakorligi boshqa maktablarga qaraganda o'yma naqshlarining maydaligi, zaminining kamligi, novdalarning zichligi, badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqiligi, ya'ni novdalarning spiralsimonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabida esa o'ymalarning maydaligi, naqsh namunasining murakkabligi, o'simliksimon girih va gulli girih naqshlarining ko'p ishlatilishi bilan hamda o'yma yuzasining ranglanishi ajralib turadi. Ijodkor ustalar Akduxofiz Jalilov, Asatillo, Nurilla Narzullaevlardir.

Toshkent o'ymakorligi maktabining yirik namoyondalaridan Sulaymon Xo'jaev, Maqsud Qosimov va Ortiq Fayzullaevlardir. Toshkent maktabining boshqa maktablardan farqi shundaki, o'ymasining ko'p qavatligi, o'rtacha chuqurlikda o'yilib, islamiy, geometrik, ramziy naqshlar ko'proq ishlatiladi.

Qo'qon yog'och o'ymakorligi maktabi ham o'ziga xosligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Yirik ustalardan Haydar Najmiddinov va Qodirjon Haydarovlardir. Bu maktab o'ymakorligining mahobatlilik, yirikligi, o'ymalarning chuqurligi va ko'p qavatlilik bilan farqlanib turadi.

Sulaymon Xo'jaev 1866 yili Toshkentdagi Suzuk ota mahallasida yashovchi usta va durodgor Nasrulloxuja oilasida dunyoga keldi. Yoshlik davrida Sulaymon otasiga yordam berar, lekin ko'nglida yog'och o'ymakorligini o'rganishga bo'lgan istak tobora kuchayib bordi. U 17 yoshida usta Iskandar Mirzayoqubov ustaxonasida, so'ngra 1891 yildan esa o'sha davrdagi yog'och o'ymakorligining pargori ustalaridan biri Toshpo'lat Ayubxujayevga shogird tushib, yog'och o'ymakorligining sir-asrorlarini o'rgandi.

Sulaymon ustozini hurmat qilar, qiyinchiliklarni sabr-jidam hamda o'ta mehnatsevarligi bilan yengib haqiqiy usta bo'lishga astoydil harakat qilardi. Keksa ustoz Toshpo'lat Ayubxo'jaev vafot etgach, uning san'atini davom ettirdi. Usto-

zdan estalik bo'lib qolgan asboblari yordamida Sulaymon o'zi mustaqil ravishda juda ko'p duradgorlik ishlari derazalar, eshiklar, darpardalar yasadi.

Usta S. Xo'jaev 1931 yilda Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan Butunrossiya kasblar ko'rgazmasida naqshlangan kursichasi va qush qafasi bilan ishtirok etib, ana shu ajoyib ishlari uchun "За полезные труды" bronza medali va diplom bilan taqdirlandi. Bundan tashqari S.Xo'jaev juda ko'plab ko'rgazmalarda o'zining ijod namunalari bilan ishtirok etdi. 1923 yilda Rossiya qishloq xo'jalik hunarmandchilik ko'rgazmasida, 1927 yilda halqlar san'ati ko'rgazmasida qatnashib 1-darajali diplom bilan taqdirlandi. 1937 yilda Parijda bo'lib o'tgan san'at va texnika ko'rgazmasida qatnashib yuksak baho oldi.

Usta Sulaymon Xo'jaev O'zbekiston xalq ustalari ichida birinchi bo'lib 1932 yilda Mehnat qahramoni unvonini oldi. Yog'och o'ymakorligining Toshkent maktabi, namoyondalaridan biri, pargori ustasi S. Xo'jaev 81 yoshida 1947 yilda vafot etdi.

Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabining yana bir yirik namoyondalaridan biri Maqsud Qosimovdir.

Maqsud Qosimov 1905 yil Toshkent shahrida hunarmand oilasida tavallud topdi. Tog'asi Mirsoat Isamuhamedovdan duradgorlik sirlarini o'rgandi va 16 yoshidan duradgor bo'lib ishlay boshladi. 1935 yilda Toshkent shahrida hunarmandchilik o'quv-ishlab chiqarish kombinati ochildi. Maqsud mazkur o'quv-ishlab chiqarish kombinatiga o'qishga kirib tez orada yog'ochga, ganchga, tosh va metalga gul o'yish sirlarini o'rgandi.

Shu davrning ko'zga ko'ringan yog'och o'ymakorligi ustalaridan qo'qonlik Abdurazzoq Abduraxmonovdan islamiy, Toshkentlik Sulaymon Xo'jaevdan pargori naqshi va Toshkentlik Nasriddin Ziyaqorievdan panjara yasash sirlarini o'rgandi.

Maqsud Qosimov keyinchalik Xalq xo'jaligi muzeyi (hozirgi Badiiy ko'rgazmalar direksiyasi, 1933-34 yillar), Moskvadagi Butunittifoq qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston pavilonlarini (1937-40 yillar) jozibador qilib bezagan bo'lsa 1940-42 yillarda Qirg'izistonning

Frunza (hozirgi Bishkek) shahridagi hunarmandchilik o'kuv-ishlab chiqarish kombinatiga ishga taklif qilindi va nafis yog'och o'ymakorlik san'atidan yoshlarga saboq berdi.

Maqsud Qosimov 1943 yilda Muqimiy teatri uchun uchta eshikni, 1943-46 yillari Navoiy teatri qurilishida ishtirok etib ganchkorlik ishlarini hamda o'rindiqlar suyanchig'ini o'yma naqshlar bilan bezadi. Maqsud Qosimov o'ymakorlik ishlari bilan birga me'moriy obidalarini ta'mirlash ishlarida ham ishtirok etdi. Jumladan uyi (hozirgi xalq Amaliy san'at muzeyi) eshik va ustunlarini qayta ta'mirladi.

Hozirgi kunda usta Maqsud Qosimovning yaratgan nafis asarlari Toshkent, Samarqand, Moskva, Sankt-Peturburg va boshqa chet el muzeylarida doimiy eksponent sifatida saqlanib kelmoqda. Usta Maqsud Qosimov 1965 yilda vafot etdi. Bugungi kunda uning ishlarini O. Fayzullaev, H. Qosimov, A. Shokirov kabi shogirdlari davom ettirib kelmoqdalar.

Yog'och o'ymakorligining yirik maktablaridan biri Xiva yog'och o'ymakorlik maktabidir. Xivalik ustalarning ijodi ham o'ziga xosligi, betakrorligi, nafisligi bilan ajralib turadi. Ushbu maktabning namoyondalaridan biri Ota Polvonovdir.

Ota Polvonov 1867 yilda Xivalik yog'och o'ymakor usta Polvon Abdusattorov oilasida dunyoga keldi. U bolalik davrlaridanoq yog'och o'ymakorligi san'atiga mexr qo'ydi va dastlabki saboqni bobosi usta Abdusattordan, keyinchalik esa otasi usta Polvondan san'at sirilarini o'rgandi. Xivadagi ko'pgina binolarning darvoza, eshik va ustunlarini bezashda qatnashdi.

1934 yilda O. Polvonov ko'hna ta'mirlash ishlarida ishtirok etib naqqosh Abdullo Boltaev tayyorlagan axta yordamida ustun va eshiklarni qayta ta'mirladi. Arkdan tashqari Toshhovli, Nurillaboy saroyi va boshqa va qadimiy binolarni qayta ta'mirlash ishlarida ishtirok etdi.

Ota Polvonov va naqqosh Abdulla Boltaev hamkorligi ko'p muvaffaqiyatlarga olib keldi. 1937 yilda Parijda bo'lib o'tgan San'at ko'rgazmasida Ota Polvonovning A. Boltaev tayyorlagan naqsh andozasi asosida o'ta nafis, yuksak

mahorat va did bilan ishlagan o'yma ustuni yuksak baholandi. 1940 yildan boshlanib 7 yil maboynida bunyod etilgan Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Katta Akademik Opera va Balet teatri binosining Xiva zalida foyelari uchun eshiklarni jozibador va go'zal naqshu nigorlar bilan bezadi. 1962 yilda esa Urganch vakzali uchun ikki va to'rt tabaqali eshiklarni, Badiiy ko'rgazmalar direksiyasi uchun eshik va ustunlarni yog'och o'ymakorligining Xiva uslubiga xos betakror naqsh kompozitsiyalari bilan bezadi.

Ota Polvonov umrining oxirigacha yog'och o'ymakorligining Xiva maktabini rivojiga beqiyos hissa qushdi. U 1972 yili 105 yoshida vafot etdi. O. Polvonov bezagan osoru atiqalar o'zining nafisligi, o'ziga xosligi va go'zalligi bilan ajralib turadi. U o'zi egallagan san'at sir-asrorlarini yoshlarga o'rgatib keldi. Uning shogirdlaridan biri Safo Bog'bekovdir.

Safo Bog'bekov 1904 yilda Xivalik yog'och o'ymakor usta Bog'bek Abdurahmonov oilasida tavallud topdi. U dastlabki yog'och o'ymakorligi san'ati sir-asrorlarini otasi B. Abduraxmonovdan, keyinchalik esa o'sha davrning mashhur yog'och o'ymakorligi ustasi Ota Polvonovdan o'rgandi. U ustози O. Polvonov hamkorligida ko'plab yog'och o'ymakorligi ishlarini amalga oshirdi.

Jumladan, Toshkent shahridagi Alisher Navoiy teatri va Urganch temir yo'l vokzalida hamkorlikda ish olib bordi.

S. Bog'bekov 1970 yilda "O'zbekiston" teploxodi ichki bezaklari uchun 8 turli namoyonlar, 1974 yili Urganchdagi "Inturist" mexmonxonasining tantanalar zali uchun ikkita devoriy namoyonni an'anaviy islmiy o'yma naqsh san'ati bilan bezadi. Ko'plab jamoat va turar joy binolari uchun o'yma eshiklar, ustunlar, darvozalar va uy-ro'zg'or buyumlaridan quticha, lavh, xontaxta, kursi va boshqa bir qator buyumlar tayyorladi, Xiva shahridagi ko'plab me'moriy obidalarni qayta ta'mirlash ishlarida ishtirok etdi.

Respublikamizda keng-ko'lamda rivojlangan yog'och o'ymakorlik maktablaridan yana biri Qo'qon yog'och o'ymakorlik maktabidir. O'yib bajarilgan san'at asarining monumentalligi, yirikligi, o'ymalarning chuqurligi, ko'pqavatligi, o'yilgan yuzaning faqat yuziga to'qroq rang berib keyin moylash Qo'qon maktabi-

ga xos bo'lib, uning rivojiga H. Najmiddinov, H. Umarovlarning xissasi beqiyosdir.

Haydar Najmiddinov Qo'qon shahrida 1850 usta Najmiddin oilasida dunyoga keldi. U yog'och o'ymakorligi sir-asrorlarini otasidan o'rgandi va qo'qon yog'och o'ymakorligi maktabini yaratdi, uning rivojiga munosib hissa qo'shdi. H. Najmiddinov 1890 yillardan Qo'qonda o'yma naqshli eshiklar va ustunlar yaratgan, binolarning sharafa, muqarnaslarini bezashda, musiqa asboblari badiiy ishlov berishdagi mohirligi bilan shuhrat qozongan. "Parang" ("ustasi parang") laqabini olgan. Yog'och o'ymakorligida qo'llaniladigan naqsh turining pargori usulida keng ko'lamda foydalanib uy-ro'zg'or buyumlaridan ko'p qirrali kursilar, lavh va qutichalarning o'ziga xosligi, jozibadorligi va go'zalligi bilan ajralib turadi.

Haydar Najmiddinov yaratgan yog'och o'ymakorlik buyumlari bugungi kunda "Xalq amaliy san'ati" va boshqa muzeylarda doimiy eksponat sifatida saqlanib kelinmoqda. U 1921 yilda vafot etdi. H. Najmiddinov o'zining yuksak mahorati va boshqa betakror san'ati sirlarini bir qator shogirdlariga o'rgatdi. Qo'qon yog'och o'ymakorlik maktabining yirik vakillaridan biri Qodirjon Haydarov shular jumlasidandir.

Qodirjon Haydarov 1899 yili Qo'qonlik atoqli naqqosh Haydar Najmiddinov oilasida dunyoga keldi. U dastlabki yog'och o'ymakorligi san'atini otasidan o'rgandi. Qodirjondagi bolalikdan san'atga bo'lgan ishtiyoq asta-sekin unga yog'och o'ymakorligi sir-asrorlarini qunt bilan o'rganishga, sabr-toqatli bo'lishga o'rgatdi. U o'zi muslaqil ravishda uy-ro'zg'or buyumlari, qutichalar, stol, kursi va xontaxtalarni nafis va bejirim qilib bezab el e'tiboriga tushdi. Q. Haydarov dastlab 1923 yilda Moskvadagi xalq xo'jaligi ko'rgazmasida xizmat qildi. U uy-ro'zg'or buyumlarini pargori naqshlari bilan va mahobatli yog'och o'ymakorligida islamiy naqshlardan foydalandi.

1925-29 yillarda Qo'qondagi Narimonov nomidagi internatda to'garak rahbari, 1929-31 yillarda yosh duradgorlar to'garagiga boshchilik qildi. 1931-33 yillarda o'qishini davom ettirdi. 1933-54 yillarda "Yangi ma'dan" artelida du-

radgor, yog‘och o‘ymakori va 1954-57 yillarda esa Qo‘qon muzeyida ta‘mirlovchi bo‘lib ishladi. U o‘zining faoliyati davomida ko‘plab eshik, ustun, kursi, xontaxta, quticha va boshqa turli buyumlarni yog‘och o‘ymakorligi bilan go‘zal va jozibador qilib bezab shuhrat qozondi.

Bugungi kunda Qodirjon Haydarov qoldirgan Qo‘qon tarixi muzeyidagi kravat, Toshkentdagi Tarix (avvalgi Lenin muzeyining Toshkent filiali) muzeyning eshigi, Xalqlar Do‘stligi saroyining eshigi va boshqalar uning o‘ymakor san‘ati an‘analarini yangi motivlari bilan boyitganini ko‘rsatadi. Qodirjon Haydarov 1963 yildan O‘zbekiston Xalq rassomi, 1970 yili Respublika Hamza mukofoti sovrindori, bir necha ordenlar sohibi bo‘lgan. Yog‘och o‘ymakorligining islamiy va pargori ustasi, ajoyib san‘at sohibi Q.Haydarov 1983 yilda Qo‘qon shahrida vafot etdi.

Samarqand yog‘och o‘ymakorligi maktabi boshqa maktablarga qaraganda o‘ymalarning juda mayda o‘yilishi, kompozitsiyaning murakkabligi, ya‘ni geometrik, o‘simliksimon va gulli garih kompozitsiyalari hamma zamin va releflarini laklashdan boshlanadi. Asosan chinor, dub, buk va terak yog‘ochlari ishlatiladi. Mazkur maktabning namoyondalari Abduhofiz Jalilov va Nurilla Narzullaevlardir.

Abduhofiz Jalilov (1869-1954) duradgorlik, yog‘ochsozlik va yog‘och o‘ymakorligi san‘ati ustasi nomi bilan xalq orasida tanilgan. U daslab usta Ne‘matdan hunar o‘rgangan. Sinchli uy qurish, eshik, sandiqlarga bezak berish sir-asrorlarini puxta o‘rgangan. A.Jalilov usta Fayzullo va usta Abduqodir Boqievlar bilan birgalikda ishlab, ulardan muqarnas va garih tuzishni o‘rgangan. Kalantarov uyining murakkab shakli shipi, Xo‘ja Axror masjidning shifti va Xo‘ja Yusuf masjidini qurib, ulardagi duradgorlik, yog‘ochsozlik va o‘yma ishlarini bajargan.

Samarqand yog‘och o‘ymakorlik maktabining yirik vakillaridan biri Nurilla Narzullaevdir. U 1870 yili Samarqandlik usta Narzulla oilasida tavallud topdi. N. Narzullaev dastlabki yog‘och o‘ymakorlik sabog‘ini otasidan o‘rgandi. Keyinchalik o‘zining tinimsiz mehnati, izlanishlari natijasida xalq orasida o‘ymakor usta sifatida shuhrat qozondi. U eshik va darvozalarni nafis va yuksak mahorat bilan bezar ekan, naqshning islamiy va pargoriy usullaridan keng-ko‘lamda foydalandi. Pardoznig choka va pax turlarini qo‘llab o‘ziga xoslikka erishdi. N.Narzullaev

Butunittifoq qishloq xo'jaligi ko'rgazmasining O'zbekiston paviloniga ikki tabaqali, dilali eshikni o'yma naqshlar bilan bezadi va ishi yuksak baholandi. Nurilla Narzullaev 1939 yilda vafot etdi.

Andijon zaminning mohir ustalari yaratayotgan pichoq, sandiq, beshik singari uy-ro'zg'or buyumlarining bozori hamisha chaqqon. Andijon zargarlari yasagan nafis taqinchoqlar har qanday ayolning xusniga husn qo'shadi. Dunyoning turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan sayyohlar ham andijonlik ustalar, kosibu hunarmandlar mahoratiga tahsin aytishadi. Ayniqsa, Andijon yog'och o'ymakorligi maktabi ham o'ziga xosligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Yirik ustalardan biri Qutbiddin Turdiev va Yo'lbars O'taganovdir.

Hunarmandlarimiz milliylik, sharqona ruh ufurib turgan naqshlari, zargarona mahorat bilan sayqallangan kulollik buyumlari, masofadan turib boshqariladigan beshiklari, so'zanayu do'ppilari, boshqa joylarda uchramaydigan sovg'abop pichoqlari bilan e'zoz topmoqdalar. San'at asari darajasiga yetkazib ishlangan buyumlar, miniatyura namunalari, taqinchoqlar, kiyim-kechaklar esa jahonning eng nufuzli ko'rgazmalarida namoyish etilmoqda. Ayniqsa, Prezidentimizning 1997 yil 31 martdagi Farmoniga asosan, O'zbekiston xalq ustalari va badiiy hunarmandlarining "Hunarmand" uyushmasi tashkil etilgani soha vakillari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bugungi kunda andijonlik ustalardan 1100 nafardan ziyodi ushbu uyushmaga a'zo ekanligi buning tasdig'idir.

Buning samarasi o'laroq, milliy me'morlik yechimiga ega bo'lgan, zamonaviy imoratlarga sharqona ruh, o'zgacha go'zallik hamda ko'rkamlilik baxsh etayotgan o'ymakor eshiklar, ustunlarning mohir ijodkori izboskanlik Yo'lbars O'taganov elga tanildi. Andijon shahridagi Bobur muzey, Cho'lpon yodgorlik muzeylari, Andijon aeroporti va boshqa binolar, Toshkent va Farg'onada choyxonalar uchun qurilgan maxsus pannolar ham qo'li gul ustaning ijod mahsulidir. Mashhur o'ymakor, O'zbekiston xalq ustasi Yo'lbars O'taganov ham o'z hunarining orqasidan respublikada e'tibor qozonganlardandir. Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi bunyod etilishida bu ustaning hissasi kattadir. Bu ziyoratgoh qadamjoydagi me'morchilik obidalari Sharqu G'arbdan, Janubi-

Shimoldan kelayotgan ziyoratchilarni, sayohatchilarni, davlat va jamoat arboblarni, diniy va dunyoviy olimlarni hayratga solmoqda.

Asarlari esa viloyat adabiyot va san'at muzeyi, Toshkentdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi bilan birga, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Hindiston kabi qator davlatlarning kolleksionerlari jamg'armasida saqlanayapti.

Yog'ochga "jon" baxsh etayotgan bu ustaning kamtarona mehnati ham yuksak baholangan. "O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi" unvoniga sazovor bo'ldi. "Tashabbus" ko'rik-tanlovlarining sovrindorlari qatoridan o'rin oldi. Prezidentimizning maxsus sovg'alari bilan taqdirlandi.

II BOB. Zamonaviy me'morchilik inshootlarida yog'och o'ymakorligi qo'llanilishi


2.1.Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan asbob-uskunalar

Tekis va aylana iskanalarning standart yig'ilmasi o'z ichiga 18 xil ko'rinishdagi (ya'ni sopining uchi nazarda tutilyapti) o'yadigan asboblarni olishi mumkin. Ularning har biri 5 tadan profilga ega bo'lishi mumkin va ulardan ko'pchiligi 2 dan to 50 mm gacha o'ya oladi. Ularni yaxshi asbob-uskunalar sotuvchi do'konlardan yoki ixtisoslashgan firmalardan pochta orqali, ulardan ba'zilari butun dunyo bo'ylab yetkazib berish imkoniyatiga ega.



O'yma uchun asbob-uskunalar charxlangan holatda sotiladi, lekin baribir o'zimizga moslab charxlanmagan bo'ladi. Umumiy yog'ochlarga ishlov beruvchi asboblardan farqli ravishda o'yma uchun mo'ljallangan iskana va boshqa asboblarning o'yuvchi qismi yog'ochlarni maksimal xilma xillikda o'yib chiqish uchun ikki tomondan charxlanadi. To'g'ri iskanalarning o'yuvchi qismi har tomonidan bir xil charxlangan burchakka ega bo'ladi, aylana iskanalarda va kesadigan asboblarda esa qiyalik ichkrisiga qaraganda tashqarisida ko'proq bo'ladi. Bunday asboblarning o'yuvchi qismlarini o'tkir holatda ushlab turish uchun, albatta yuqori sifatli charxlaydigan tosh va qayroqtoshlar kerak bo'ladi. Yangi boshlayotgan ustalar uchun faqatgina bir nechta asboblarni to'plami kerak bo'ladi.

Dasta uchun qattiq daraxt turlari ishlatiladi. Masalan: buk, yasin, qayrag'och va shunga o'xshash. Latunli halqa qoyilgan aylana shaklidagi dastalardan hamda, halqasiz dastalardan foydalanish mumkin. Sakkiz qirralik dastalar uncha katta bo'lmagan asboblarni dastgoh va stollardan sirg'anib tushib ketishiga yo'l qo'ymaydi.



1. 12 mmli to 'g'ri-tekis iskana. (umumiy ish uchun, to 'g'ri o 'ymalar uchun)
2. 12 mmli qiyaroq tekis iskana. (detallarni kesish uchun)
3. 3 mmli to 'g'ri aylana iskana. (mayda ishlar uchun)
4. 25 mmli to 'g'ri aylana iskana. (tez o 'yish uchun va umumiy ish uchun)
5. 8 mmli to 'g'ri aylana iskana. (pardozlash va umumiy ish uchun)
6. 9 mmli qayrilgan aylana iskana (biroz qayrilgan detallarni pardozlash uchun)
7. 9 mmli qoshiqsimon iskana. (qayrilgan detallarni ichini o 'yish uchun)
8. 12 mmli qoshiqsimon iskana. (qayrilgan detallar ichini chuqur o 'yish uchun)
9. 9 mmli to 'g'ri burchakli iskana. (kontrlash, harf detallarni o 'yish uchun)
10. 8 qirrali dasta yasindan.
11. Aylanasimon dasta bukdan.

Yog‘och o‘ymakorligi uchun mo‘ljallangan ko‘pchilik asbob- uskunalar dastasiz sotiladi, demakki ularni maxsus ishlab chiqarilgan dastalarga yoki o‘zimiz tayyorlagan dastalarga o‘rnatishimiz mumkin. Buning uchun dastaning o‘rtasigacha parmalab teshuvchi uskunaga yordamida nozik yo‘naltirilgan teshik ochib oling. Asbobning sopini slesarlik teskisiga yumshoq mato orqali mahkam qotiriladi. Dastani asta-sekin uriladi, keyin o‘gitib turib yechib olinadi. Yana dastani o‘rnatilib, sopning maxsus joyigacha 6 mm qolguncha jarayonni davom ettiriladi. Pishiqligini tekshirish uchun dastani urib ishlatib ko‘riladi. Sopni tiskiga siqish uchun sopni gupka orasiga qo‘yiladi.



Yog‘och o‘ymakorligida pardozlash o‘ymakorlikning eng nozik jarayon hisoblanadi. Ishni eng ochib beradigan bosqich ham pardozlash bosqichi hisoblanadi. Pardozlashning bir necha turlari bor, masalan, chok pardoz, lo‘li pardoz va hokazo.



Pardozlovchi usta qanchalik mohir bo‘lmasin, agar uning qo‘lidagi asbob-uskunolari soz bo‘lmasa ishi ham sifatli chiqmaydi. Saz asbob-uskuna topish uchun nima qilish kerak.

“Tatianka” asbob-uskunolari to‘qmoq ishlatmasdan faqat qo‘lda o‘yish uchun mo‘ljallangan. Yog‘ochning o‘yilishi qo‘l kuchi yordamida amalga oshiriladi. Metal qismi: asbobning o‘yuvchi qismi UVA po‘latidan tayyorlangan. Yog‘och qismi: asbobning sopi bukdan tayyorlangan va bir necha marta NS-222 loaki bilan qoplangan. Sopning metal uzukchasi latundan. “Tatianka” asboblarining tartib raqamlari sop qismining oldi yoki orqa qismida joylashgan bo‘ladi. Alohida va maxsus charxlangan, osin, lipa kabi yumshoq yog‘ochlarni o‘yishga mo‘ljallangan. Asbobning charxlanishi dub, qayrag‘och, yong‘oq kabi qattiq yog‘ochlarga ham to‘g‘ri kelishi mumkin. Lekin metal yupqa va ingichka

charxlanganligi uchun tavsiya etilmaydi. Qattiqroq yog‘ochlarga ishlatish uchun yo‘g‘onroq qilib charxlash talab qilinadi.



To‘plam ichidagi asboblarning haqida fotoma’lumot

Yog‘och o‘ymakorligida asosiy ish quroli iskanalar bo‘lib, ular tuzilishi va bajaradigan vazifalari jihatidan turlicha bo‘ladi. Iskanalar ikki turga yo‘nuvchi iskanalar va o‘yuvchi iskanalardan iborat. Yo‘nuvchi iskanalar qo‘l kuchi bilan yo‘nib ishlanadigan, randa bilan ishlashning imkoniyati bo‘lmagan joylarga ishlov berishda foydalaniladi. O‘yuvchi iskanalar esa tashqi kuch ta’siri ostida ishlatiladi, ya’ni bolg‘a bilan urib ishlatib, bu iskanalar yordamida yog‘ochlarni teshishda, uyachalar qilishda, quloqchalar ochishda, asosan o‘yma bezaklarni bajarishda foydalaniladi.

Yo‘nuvchi iskanalar bilan o‘yuvchi iskanalar bir-biridan tashqi ko‘rinishi jihatidan, ya’ni dastalarning bir yoki ikki tomonda halqasi bo‘lishi, o‘tkirlik burchak-

lari bilan farq qiladi. Yo‘nuvchi iskanaga tashqi kuch ta’sir etmaydigan bo‘lganligi uchun faqat dastasining pastki tomonida halqacha qo‘yiladi hamda o‘tkirlik burchagining kichik bo‘lishi bilan ajralib turadi. Chunki uning yo‘nuvchi pichog‘i yupqa bo‘ladi. O‘yuvchi iskanalarning kesuvchi pichog‘ining qalinligi, tashqi kuch ta’sirida dastaning yorilib, titilib ketmasligini oldini olish, uzoqroq ishlashini ta’minlash maqsadida ikki tomoniga temir halqachalar qo‘yiladi.


Iskanalarning dastasi pishiq yog‘ochlar, ya’ni qora qayin, qayrag‘och, zarang, yong‘oq, o‘rik, shumtol va boshqa daraxt yog‘ochlaridan tayyorlanadi. Iskanalar yog‘och to‘qmoq bilan urib ishlanadi. Shuning uchun ham iskanalarning dastasi pishiq yog‘ochdan yoki plastmassadan tayyorlanmog‘i lozim. Plastmassali dastalar tashqi kuchga ta’sirli, yorilishga chidamli bo‘lib, bolg‘a urishda yorilib ketmaydi.

Yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan iskanalarni maxsus asbob tayyorlaydigan ustalar tayyorlaganlar yoki ustalarning o‘zlari yasaganlar. Hozirda yog‘och o‘ymakorlik iskanalari metalsozlik korxonalarida tayyorlanadi. Yo‘nuvchi va o‘yuvchi iskanalarni charxlashga alohida e’tibor qaratish kerak. Iskanalar bir tomonga qarab charxlanib, o‘ziga xos o‘tkir burchak ostida charxlanadi.

Yo‘nuvchi va o‘yuvchi iskanalarning bir necha xillari bulib, ular qo‘yidagilardan iborat: oddiy to‘g‘ri iskana, kovza iskana, morpech iskana, chekma iskana, chuv iskana, qing‘ir iskana va boshqalar.

Oddiy to‘g‘ri iskana – to‘g‘ri sterjen keskichli bo‘lib, tig‘ining eniga qarab kichkina, o‘rtacha va katta iskanalar bo‘ladi. Tig‘ining eni 1,5 mm dan 30 mm gacha bo‘ladi. Mazkur iskana yo‘nishda va o‘yishda ishlatilib, ko‘pincha girih, gulli girih naqshlarini kesishda va zaminini o‘yishda, tekislashda ishlatiladi.

Kurakcha iskana – kesadigan tig‘ining uchi bir tomonga qiya holatda bo‘lib, u kurakcha ko‘rinishda bo‘ladi. U katta-kichikligiga qarab turlicha bo‘ladi. Kurakcha iskanalar ensiz zanjira, hoshiya naqshlarini o‘yishda, zaminsiz o‘ymani bajarishda ishlatiladi. Yo‘nuvchi va o‘yuvchi bu asbob bilan iskanani o‘ng qo‘lda dastasini ushlab, tasvir yoki naqsh chizig‘i ustidan kerakli chuqurlikda sanchgan holda o‘ymakor usta o‘zi tomonga tortib kesib boradi.



Zamin iskana – o‘ymaning zaminini o‘yib olishda ishlatiladi. Zamin iskananing eni 2 mm dan 10 mm gacha bo‘ladi.

Baliq sirti iskana – tig‘i botiq, kamalaksimon ko‘tarilgan, baliq qovurg‘asi shaklida bo‘lib, baliq tangalari ko‘rinishdagi o‘ymalarni amalga oshirishda ishlatib o‘ymaga o‘zgacha ko‘rk baxsh etadi. Baliq sirti iskana keskichining eni 4 mm dan 19 mm gacha, katta-kichikligiga qarab uning kichik, o‘rtacha va katta turlari bo‘ladi.

Morpech iskana – o‘ymaning chetlaridagi hoshiya, zanjira, yarim doiralar, nuqtalar chiqarishda qo‘llaniladi.

Chekma iskana – o‘yilgan naqsh zaminini aptir yuzasiga o‘xshatib chekmalab o‘yib chiqishda ishlatiladi. U o‘yilgan naqshlarni aniq ko‘rinishi, zaminini bir tekisda chiqishi va o‘ziga xos badiiy ko‘rinishi ta‘minlash uchun ishlatiladi. Ishlatish joyiga qarab bir tishli, uch tishli, besh tishli, o‘n olti tishli chekma iskanalar bo‘ladi.

Chekma qalam – o‘yma naqshning zaminini chakichlab chiqish uchun ishlatiladigan asbob. Bu asbob yog‘och banddan va uzun temir sterjendan iborat. Chakichlar bir qatorli, ikki qatorli va uch qatorli bo‘lib, har bir qatorida 2, 3, 4, 5 va hokaza buyurtma tishli bo‘lishi mumkin. Chekma qalamda chakichlangan naqsh aniq, mayin, yanada nafis ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Yog‘och o‘ymakorligida o‘yib bezashda asosiy asbob-uskuna, ya’ni iskanalardan tashqari yordamchi asboblari ham kerak bo‘ladi. Qalam, sirkul, chizg‘ich, o‘chirg‘ich, jilvir qog‘oz, knopka, duradgorlik asboblari, bolg‘a, yelim va boshqalar shular jumlasidandir.

Qalam – o‘rtasi ingichka, uzun ko‘mir, grafit, qo‘rg‘oshin, quruq buyoqdan qilingan qotishma joylashgan cho‘p shaklidagi yozuv asbobi.

Qalam asosan yozish, rasm solish hamda chizmachilik uchun ishlatiladi. O‘rta Osiyoda hattotlar siyox bilan yoziladigan qalamlardan foydalanganlar. Chex olimi Y. Graxmut maydalangan grafit va gil aralashmasidan yozuv sterjenlar tayyorlashni taklif qilib, ishlab chiqarishga asos solgan. Yog‘och qalamlar ishlash joyi va xususiyatiga qarab grafitli, rangli va boshqalarga bo‘linadi va ular joyiga qarab ishlatiladi. Grafit qattiq va yumshoqligiga qarab uch turga bo‘linadi. Qattiq qalamlar T, 2T, 3T, N, 2N, 3N yumshoq qalamlar M, 2M, 3M, 4M yoki V, 2V, 3V; o‘rtacha yumshoqlikdagi qalamlar TM, NV, harflar bilan belgilangan.

Chizg‘ich – to‘g‘ri chiziq chizish uchun ishlatiladigan silliq asbob bo‘lib, o‘quv va idora ishlarini bajarishda foydalaniladi. Chizg‘ich o‘lchash yoki hisoblash uchun ishlatiladigan santimetr va millimetrlarga bo‘lingan bo‘ladi.

Pargor (sirkul) – bir uchi sharnirli biriktirilgan ikki yoqli chizmachilik asbobi bo‘lib, bir uchida qalam sterjen, ikkinchi uchida nina sterjen o‘rnatilgan bo‘ladi. Bu asbob o‘lchash, aylana va yo‘llar chizish uchun ishlatiladi.

O‘chirg‘ich – yozilgan yoki chizilgan narsani o‘chirish uchun ishlatiladigan maxsus rezina bo‘ladi. U naqsh kompozitsiyalar chizishda ortiqcha chiziqlarni o‘chirish uchun qo‘llanadi. Qalamda chizilgan narsalarni oq yoki ko‘k o‘chirg‘ichda, siyoh yoki tush bilan chizilgan chiziqlarni tarkibida maydalnagan qumi bo‘lgan qizil o‘chirg‘ichda o‘chiriladi.

Knopka – keng qalpoqchali, bosma mixcha. Qog‘oz, mato va shu kabilarni qattiq narsaga mahkam qadab qo‘yish uchun ishlatiladi.

Jilvir qog‘oz – tabiiy va sun‘iy obraziv materiallar, ya’ni tog‘ jinslari kvars, qum, korund, shisha, gemotut va boshqalarni maydalab mato yoki qog‘ozga yopishtirib tayyorlangan maxsus material. Jilvir qog‘ozlari mayda yoki yirik donali

bo‘ladi. Jilvir donachalariga qarab 12, 16, 20, 24, 36, 60 va hokazo nomerli bo‘ladi.

Ma‘lumki yog‘och o‘ymakorligida yog‘ochlarning ishlov berishga tayyorlashda turli yelimlardan foydalanadi.

Yelimlar – suyuqlangan yuqori molekulyar anorganik va organik moddalar yoki ularning eritmalari bo‘lib, turli materiallarning bir-biriga yopishtirish uchun ishlatiladi.

Yelimlar tabiiy, sun‘iy hamda rezina yelimlarga bo‘linadi.

Tabiiy yelimlar – hayvonlar (suyak, sut, teri, pay va boshqa) va o‘simliklar (darxtdlar shiralari, kraxmal qipiqqlarni qayta ishlash natijasida) mahsulotlaridan olinadi. Namlikka ancha chidamsiz.

Sun‘iy yelimlar (smolalar) – polimerlar emultatsiyasi, shuningdek, erituvchi qo‘shilgan qo‘shilmagan smolalar birikmalaridan iboratdir. Turli materiallar, shisha, plastmassa, metall, chinni, penoplast, suyak, qog‘oz va boshqalarni birlashtirishda keng ko‘lamda ishlatiladi. Issiq, sovuq, namlik, ishqalanish, egilish, bukilish va siljish kuchlanishlariga yaxshi chidaydi.

Rezina (smolali) yelimlar – tabiiy va sintetik yo‘l bilan olinadi. Tabiiysi kauchuk daraxti smolasidan, sun‘iysi rezinali birikmalarining erituvchilarda (benzin, kerosin, spirtidagi) erigan ko‘rinishidir. Turli jinsdagi materiallarni, masalan, yog‘ochni sementga, metallga, shishaga, plastmassani gazlamaga birlashtirishda ishlatiladi.

Yog‘ochsozlikda, duradgorlikda, o‘ymakorlikda ko‘pincha hayvon yelimlaridan kazeinli yelimlar ishlatiladi. Namlikka chidamli kazein (lot-kasgeispishloq) – murakkab oqsil bo‘lib, kimyoda fosfoproteid tuzilishini namoyon qiladi. Sutning ivishi jarayonida, uning tarkibidagi kazeinogendan hosil bo‘ladi. Tuzli, ishqorli muhitda eriydi.

Yog‘och o‘ymakorligida taxtalarni o‘ymakorlikka tayyorlashda bir-biriga birlashtirilib, o‘yiladigan buyumning assosi tayyorlab olinadi. Taxtalarning o‘yiladigan yuza qatlami silliqqlanib, tobga keltiriladi. Avvaliga mayda tishli arrada arralanadi, keyin esa mayin burrada arralanadi. Tekis qilib randalanadi va bir-birga tekkizib,

mayda tirqishlar yoʻqligiga ishonch hosil qiladi, shundan soʻnggina taxtalar birlashtirib, pardozlanadi. Pardozlashda mayda qumli jilvir qogʻoz, baxmal bilan artiladi. Yelimlash jarayonida amalga oshiriladi va taxtalar biriktiladi. Yopishtirilayotgan yuza oraligʻida qirindi yoki boʻshliq qolmaganligiga ishonch hosil qilish uchun bir-biriga bir necha martalab ishqalab yuboriladi.

Yogʻoch oʻymakorligi ustaxonasida talaba turli yumushlarni bajarishga toʻgʻri keladi. Jumladan, chizmachilik, naqqoshlik, duradgorlik, oʻymakorlik va hokazo ishlarni tashkil etishda jarohatsiz faoliyat koʻrsatishga erishmoq uchun avvalo asbob-uskunalarni koʻzdan kechirib chiqmoqni taqozo etadi. “Men bu moslamada ishlamoqdaman” deb ikkinchi moslamaga eʼtiborsizlik turli koʻngilsiz holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.



Faoliyatni boshlashdan avval albatta maxsus ish kiyimini kiyib olish zarur. Turli asboblardan ishlashda, masalan, oʻymani bajarish uchun iskana va bolgʻani (yogʻoch toʻqmoq, kiyankani) ushlash qoidalariga amal qilgan holda, yaʼni iskanani boʻshroq, bolgʻani esa qattiqroq siqib ushlash zarur.

Yogʻoch oʻymakorligida taxtachalarni oʻymaga tayyorlab olingach unga moslab axta (ulgi, nusxa) sini va xokazo tayyorlab olinadi. Naqshning har bir elementini, qismini, turini, guruhini oʻyishda “Oddiydan murakkabga, osondan qiyinga” tamoyiliga rioya qilib borish lozim. Naqshlarning qanaqa guruhga mansubligi, tayyorlanadigan buyumning katta yoki kichikligiga qarab, dastlab naqshning yarim gajak, gajak, novdalari, chiziqlari, bandlari baliq sirtli iskanalar bilan kesiladi. Naqshlar atrofi toʻliq kesib boʻlingach, maxsus oʻyish uchun bir tomoni charxlangan iskana bilan naqshning zamini oʻyilib tekislanadi.

Oʻymani bajarish davomida har bir iskanani ehtiyotkorlik bilan oʻz oʻrnida va oʻrinli ishlatishni oʻrganish lozim. Bu esa oʻyilayotgan yuzaning sifatli, koʻrkam va jozibador chiqishiga olib keladi. Uskunalarni ishlatib boʻlgach no-

to'g'ri joyga qo'yish, bir-biriga tegib ketishi asbobni tezda o'tmas bo'lishiga olib keladi va o'ymani sifatiga putur yetkazadi.

Ish jarayonida ba'zi bir asboblari o'tmaslashib qoladi. Bunday hollarda albat-ta asboblarni o'tkirlab olish kerak. Chunki o'tmas asbob bilan bajarilgan o'ymakorlik ishlari sifatsiz chiqadi, ko'ngildagidek bo'lmaydi.

O'tmaslashib qolgan o'ymakorlik asboblarini o'tkirlash uchun charxlar va qayroq tosh kerak bo'ladi. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan iskanalarni charxlash elektrik charxlari yoki qo'l charxlari yordamida amalga oshiriladi. El-ektrik charxlar yordamida o'tkirlashda o'ziga xos texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilish zarur.

O'ymakorlik asboblarini qo'lda qayroq toshlar yordamida o'tkirlash uchun har xil qayroq toshlari ishlatiladi. Charxlar yordamida iskanani charxlash vaqtida usta o'ng oyog'ini charxning to'g'risiga, chap oyog'ini bir oz yon tomonga qo'yadi. So'ng o'ng qo'li bilan uskuna dastasidan ushlab, chap qo'l barmoqlari bi-lan iskananing tig'inii charxga bir me'yorda bosib charxlanib, keyin esa iskananing qirovini to'kish uchun nov shakldagi o'rtasi ariqchali va yonlari qirrali turli xil mayin qumli yoki tosh qayroqlar yordamida qirovidan tozalanadi. Yana shunga alohida e'tibor berish kerakki, iskanalarning qirovini to'kish vaqtida uskuna tig'ini qayroq toshning uzunasiga bir maromda surtish kerak. Agar qayroq toshlar suvda namlanib ishlatilsa tig'dagi qirov tezda to'kiladi.

O'tkirlangan asbobning qay darajada o'tkir bo'lganligini yoki bo'lmaganligini qirovi to'kilgan asbobning tig'ini bosh barmoq tirnog'ining yuziga tekkizib ko'rib aniqlanadi. Tig' qirrasi tirnoq yuziga qadalsa unda asbob o'tkirlangan bo'ladi. Agar asbob tirnoq yuzidan sirg'anib ketsa u holda asbob hali o'tkirlanmagan bo'ladi.

O'ymakorlik ishlarining qay darajada sifatli, jozibador va ko'rkam chiqishi hamda ishning samaradorligi o'yuvchi asboblarga bog'liq ekan, demak asboblarni saqlashga ham alohida e'tibor berish kerak. O'tkirlangan iskanalarni maxsus tayyorlangan qutichalarga terib, tig'ini bir-biriga tegmaydigan qilib joylash lozim.

Agar quticha bo'lmasa, Biron-bir mato orasiga qo'yib o'ralgan holda ehtiyotlab saqlash kerak.

Kishining ruhiy holati o'zi bajarayotgan ishida, yumushida o'z aksini topmasdan qolmaydi. Kishi ruhiyatini ko'tarishda esa xonaning jihozlanishi, qulayligi, ozoda va orastaligi ham muhim ahamiyatga ega. Yog'och o'ymakorligi ustaxonasini jihozlashda duradgorlik ustaxonalarini jihozlashning umumiy qoidalaridan kelib chiqqan holda qisman bo'lsada foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har bir asbob-uskunalar, xom-ashyolar, ko'rgazmali qurollar, studentlarning tayyor ishlari, dastgohlar tartib bilan o'z joyiga qo'yilmog'i lozim.

Yog'och o'ymakorligi ustaxonasi binoning birinchi qavatiga joylashishi, unga yorug'lik yaxshi tushib turishi lozim. Ustaxonaning yarmi podval yoki podvalga joylashishi gigienik nuqtai nazardan qat'iyan man qilinadi. Ustaxona uchun qo'yiladigan maxsus talablardan biri unga tabiiy yorug'lik yaxshi tushishining ta'minlanishi, xonaning isitilishi va shamollatilishi zarur. Eng muhimi ustaxonada xafsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak.

Zamonaviy o'quv ustaxonalari materiallar, yarim tayyor va tayyor buyumlar, shuningdek asbob-uskunalar va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga ega bo'lmog'i lozim. Ustaxonalarning poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va sun'iy shamollatiladigan bo'lishi, normal tabiiy va sun'iy yoritkichlarga ega bo'lishi, havo bosimi qishda 14-16s, yozda esa 20 s dan oshmasligi kerak.

Yog'och o'ymakorligi ustaxonasi devorlari silliq bo'lib, yorqin bo'yoqlar bilan, shifti oq bo'yoqlar bilan bo'yalishi kerak. Bular xonani yaxshi yoritilishini ta'minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatidan bezatilishiga ham e'tibor berish kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan buyoqlar jihozlarning turli qismlar ishlanadigan buyumlar bilan ustaxonaning umumiy foni o'rtasida yaqqol farq bo'lishini ta'minlaydi.

Yog'och o'ymakorlik ustaxonalaridagi shovqin-suron va tebranishning kamayishiga shovqin yutuvchi va tebranishni yo'qotivchi jihozlardan, eng ratsional mehnat va hunar usullaridan foydalanish yo'li bilan erishilishi mumkin.

O'ymakorlik ustaxonalarida asbob-uskunalarni joylashtirish vaqtida yong'inga qarshi choralarga, mehnatni muhovaza qilish va gigienik talablarga rioya qilish zarur, ya'ni ustaxonani asbob-uskunalar va yordamchi jihozlar bilan to'ldirib yubormasligi kerak. Har bir ustaxonada meditsina aptechkalari bo'lishi shart. Agar biron talaba xafsizlik qoidalariga rioya qilmagan holda jarohatlansa unga zudlik bilan birinchi yordam ko'rsatilishi, qon ketayotgan bo'lsa uni to'xtatish uchun jarohatlangan joyning yuqori qismida bog'lab qo'yish va tezda yaqin oradagi tibbiy yordam ko'rsatish bo'limiga olib borish zarur.

Yog'och o'ymakorligi ustaxonalarida dastgohlar va ularning orasidagi o'tish yo'llari belgilangan normativlar darajasida bo'lishi lozim. Dastgohlarning oxirgi qatori bilan ustaxona devorlari orasidagi masofa 0,5 m bo'lishi kerak.

O'ymakorlik ustaxonalarida bevosita talaba va o'qituvchi foydalanadigan maydon 50-60 m² bo'lsa, har bir talabaning ish o'rni bir-biridan 60 sm, qatorlar orasi 1 m dan uzoqlikda bo'lsa yanada harakatlanishi qulay bo'ladi.

Ustaxona uchun qo'yiladigan maxsus talablardan biri ham shundan iboratki, unga tabiiy yorug'lik yaxshi tushishiga alohida ahamiyat berish lozim. Agarda buning iloji bo'lmasa kunduzgi yorug'lik lampalari yoki stol lampalari bilan ta'minlashni taqazo etadi.

Bundan tashqari o'ymakorlik ustaxonalarini isitilishi va shamollatilishiga ham e'tibor qaratilishi kerak. Yog'och o'ymakorligi ustaxonalarida yong'in xavfsizligiga alohida e'tibor berish lozim. Chunki yog'ochdan chiqqan qirindilar, payraxalar tez yonadi. Shuning uchun elektr isitgich asboblari, elektr pletalariga maxsus belgilangan joy bo'lishi lozim. O'ymakorlik ustaxonalari o't o'chirish inventarlari bilan jihozlangan bo'lishi zarur.

Ustaxonada qo'l yuvish, ustki va maxsus kiyim kechaklar saqlanishi uchun shart-sharoit yaratilgan bo'lishi kerak.

O'ymakorlik ustaxonalarining maydonidan oqilona va unumli foydalanish, ularning toza bo'lishi, asbob-uskunalarining to'g'ri va o'z joyida turishini ta'minlash, estetika talablariga rioya qilish hamda namunali tartib – bularning hammasi talabalarni intizomlilik va barcha asbob-uskunalar, ko'rgazmali qurollar,

jihozlar hamda dastgohlarni ehtiyot qilish ruhida tarbiyalash uchun katta ahamiyatga ega.

Shu va shu kabilarni amalga oshirishda o'qituvchining o'zi talabalarga o'rnak bo'lishi lozim. Buning uchun o'qituvchining ish o'rni, tashqi ko'rinishi va tashkil etilishi jihatidan namunali bo'lishi kerak. Ko'rsatiladigan ko'rgazmali qurollar talabalarga yaxshiroq ko'rinishi uchun o'qituvchining ish o'rniga taaluqli bo'lgan barcha narsalar yuqoriroq joyda turishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Narsalarni ko'rsatib turadigan dastgoh talabalarga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu esa ularning ko'rsatilayotgan ish usullarini yaxshiroq idrok qilishlarini ta'minlaydi.

Ko'rgazmali qurollar uchun mo'ljallangan burchakda plakatlar, jadvallar, chizmalar, asbob-uskunalar, buyumlar, hajmdor qo'llanmalar namunali tartibda va sistemali ravishda saqlanishi kerak. Mavjud ustaxonalarning ko'pchiligi yuqorida aytib o'tilgan talablarga to'liq javob bera olmasligini hisobga olib yog'och o'ymakorligi yoki mehnat o'qituvchisi bu talablarni bilishi va ularni so'zsiz bajarilishiga harakat qilishi zarur.

Qadim-qadimdan har xil yog'och materiallardan turli maqsadda foydalanib kelingan. Duradgorlik, yog'ochsozlik, mebelsozlik, qurilish, kemasozlik va boshqa bir qator kasb-sohalarida yog'ochlardan keng-ko'lamda shu sohaga mos ishlanadigan yog'ochlar saralanib foydalanib kelingan. Yog'och o'ymakorligida ham o'ymakor ustalar yog'ochni o'yishdan oldin uning o'ziga xos xususiyatlarini sinchiklab o'rganib chiqqanlaridan so'nggina yog'ochni o'yib naqsh ishlaganlar.

Yog'och o'ymakorligi mashg'ulotlarida o'ymakorlikda foydalaniladigan yog'och materiallari, ularning turlari, fizikaviy va ximiyaviy xususiyatlari, zahirolari va boshqalarni bilish studentlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Yog'och materiallari turli jinsdagi daraxtlardan olinadigan xom ashyo hisoblanadi. Chunki, binokorlikda, qurilishda, mebelsozlikda va yog'och o'ymakorligida asosiy xom ashyo sifatida ishlatiladigan yog'ochlar turli daraxtlar tanasidan olinadi. Daraxt tanasi o'zak, yog'ochlik shoxlar, tolalar va po'stloqlardan tuzilgan. Yog'och xom-ashyosi quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. tabiiy xom-ashyo;

2. turli buzilishlarga, chirishlarga qarshi antiseptik moddalar shimdirilgan yog'och xom-ashyosi;
3. preslangan yog'och xom-ashyosi;
4. yelimlangan yog'och xom-ashyosi;
5. qatlam-qatlam yog'och xom-ashyosi;
6. qatlamli preslangan yog'och xom-ashyosi;
7. plastik yog'och xom-ashyosi (maydalangan qipiq, payraxa va qirindilarni organik va meniral bog'lovchilar bilan yelimlab, qayta ishlab tayyorlanadi).

Yog'och o'ymakorligida asosan 1-guruhga kiruvchi, ya'ni, tabiiy yog'och xodalaridan, g'o'lalaridan olinadigan taxtalar xom ashyo sifatida ishlatiladi. Yog'och materillari tabiiy guliga, ranggiga, tovlanishiga va hidiga qarab aniqlanadi.

Daraxtlar bo'yiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. 35 metrdan baland – chinor, terak, qora qayin, qarag'ay;
2. 25 metrdan 35 metrgacha – qayrag'och, yong'oq, oq qayin, tol, qatrang'i;
3. 25 metrgacha – zarang, chetan, shumurt kabi mevali daraxtlarga hamda butalarga bo'linadi.

O'zbekistonda yog'ochlarning yumshoq, qattiq va juda qattiq xodalari olinadigan nina bargli va yaproq bargli turlari bor.

Nina bargli daraxtlardan olinadigan yog'ochlar qurilishda, duradgorlikda, jumladan, yog'och o'ymakorligida ham asosiy material sifatida ko'proq ishlatiladi. Chunki, nina bargli daraxtlar tarkibida smolali moddalari ko'proq bo'lganligi uchun u tez chirib ketmasligi, namga chidamliligi, bargli daraxtlarga qaraganda ko'pliligi va yengilligi, unga ishlov berish osonligi, tanasining to'g'riligi, silliqiligi, ulardan olinadigan xodalarning kam bo'toqligi, ishlov berishning osonligi bilan o'ymakor ustalar ko'proq qo'l keladi. Yog'och o'ymakor ustalar o'z asarlarini har tomonlama go'zal va jozibador chiqishi uchun eng yaxshi yong'oq, qayrag'och, chinor, tut, archa, terak, o'rik kabi mahalliy daraxtlarning eng a'lo navlarini ishlatadilar. Hozirgi kunda mahalliy daraxtlardan olingan materiallar bilan bir

qatorda boshqa joylardan keltirilgan shamshod, eman, qarag'ay, arg'uvon, shumtol, zirk kabi boshqa daraxt yog'ochlari ham ishlatilmoqda.

Yog'och o'ymakor ustalari o'zlari yaratayotgan buyumlariga qarab yog'och materiallarining xususiyatlari, daraxtlarning turlari, rangi, ishlov berishning oson-qiyinligi va ishlov berilgandan keyin buyumlarning sifatli chiqishi va saqlanishini bilishlari uchun yog'ochlar olinadigan daraxtlarni o'rganishlariga to'g'ri keladi.

Archa – O'zbekistonning tog'li joylarida o'sadigan daraxtlardan biri bo'lib, u 1000 yoshgacha yashaydi. Po'stlog'i qalin, rangi kulrang, tanasining tusi qizg'ish-pushti bo'lib tovlanadi. Serbo'toq, kam smolali, puxta, namga chidamsiz igma bargli daraxt. Undan qog'oz sanoatida, mebellar va boshqa narsalar yasashda foydalaniladi. Yog'och o'ymakorligida qadimdan qo'llanib kelingan.

Arg'uvon – yaproqli daraxt turiga kirib, u qalin po'stloqli, yengil, kam yori-luvchan, yog'ochi yumshoq, oqish tusli bo'ladi. Uning yillik halqalarini aniqlash qiyin. Arg'uvon kam chatnaydi, toblanmaydi, kesish oson, hidsiz bo'lganligi uchun yog'och idishlar, bochkalar, sabzi taxtalar, chizmachilik taxtalari yasaladi. Yog'och o'ymakorligida arg'uvonning 80-90 yilligi ishlatiladi.

Baqaterak – yaproq bargli daraxt turiga kirib, uning po'stlog'i silliq, ranggi oq-ko'kish, tanasi to'g'ri bo'lmay sershox bo'ladi. Baqaterakning yog'ochi oqish tusli bo'lib, namga chidamsiz bo'ladi. U qurilish ishlarida, o'ymakorlik, duradgorlik buyumlarni tayyorlashda ishlatiladi. Undan eshiklar tayyorlashda va panjara to'qishda keng qo'llaniladi.

Yong'oq – yaproq bargli daraxt turiga kirib, uning po'stlog'i ko'kimtir, qal-in, silliq, yog'ochi qizg'ish kulrang tusli, qattiq va og'ir qimmatbaho yog'och. Un-ing tanasining pastki qismida po'stlog'ining chatnog'i bor. Yong'oqning tabiiy guli chiroyli, ishlov berish qiyin bo'lsada yaxshi o'yiladi va yaxshi pardoatlanadi. Uning tarkibida yog' va yod moddasining mavjudligi yong'oqdan yasalgan buyumlarga o'zgacha chiroy va joziba baxsh etadi. Undan qimmatbaho mebellar tayyorlashda va yog'och o'ymakorligida keng-ko'lamda ishlatiladi.

Zarang – qattiq yog'och turiga kirib, u qoramtir qizg'ish rangli, zich, puxta, mexanik xossalari jihatidan emandan ustun turadi. Tabiiy gullari chiroyli bo'lib,

o'zgacha bir chiroy kasb etadi. Yillik halqalari bir oz bilinadi, ishlov berilishi qiyin, yaxshi o'yiladi va pardozlanadi. Zarangning qush ko'ziga o'xshash tabiiy gullarining chiroyi boshqa yog'ochlardan ajratib turadi. Yog'och o'ymakor ustalari uning qush ko'ziga o'xshash gullarini hisobga olib qush ko'zi ham deb aytadilar. Yog'och o'ymakorligida mebelsozlikda zarang xom-ashyolaridan tayyorlangan buyumlar qimmatbaho hisoblanadi. U mashinasozlik korxonalarida ham ishlatiladi.

Zirk – uning ikki turi mavjud bo'lib, oq va qora zirk deb yuritiladi. Oq zirk po'stlog'i tiniq hamda silliq bo'ladi. Qora zirkning po'stlog'i qoramtir tusda bo'lib, qalin chatnagan bo'ladi. Zirk namga chidamli, bo'yoqni yaxshi oladi, ochiq havoda tez qizarib ketadi, yumshoq, yillik halqalari ko'zga tez va yaqqol tashlanadi. O'yilishi va pardozlanishi qiyin. Undan arzon mebellar va fanerlar tayyorlashda ishlatiladi, chunki unga tez qurt tushadi.

Mirzaterak – yaproq bargli daraxt turiga kirib, po'stlog'i sarg'ish, kam chatnagan va silliq bo'ladi. U kam shoxli, tanasi tik va to'g'ri, yog'ochi oq tusli, namga chidamsiz bo'ladi. Mirzaterak duradgorlikda va yog'och o'ymakorligida keng ishlatiladi.

Nok – bargli, mevali, qalin po'stloqli, chatnagan bo'ladi. Nokning yog'ochi to'q jigarrang, mo'rt, qattiq, yillik halqalari bilinar-bilinmas. Uning xodalaridan gul bosadigan qoliplar, randalangan panerlar va qimmatbaho mebellar tayyorlanadi. O'ymakorlikda ishlatiladi.

Oq qayin – yaproq bargli, daraxt turiga kirib uncha qalin bo'lmagan oqish bo'lmagan oqish po'stlog'li palaxsa-palaxsa yorilgan bo'ladi. Uning yog'ochi qattiq, oqish tusli, yog'ochga ishlov berish qiyin, yillik halqalari bilinar-bilinmas, namga chidamsiz, o'yilganda sifatsiz, lekin yaxshi pardozlanadi. Tanasida smolali va yog'ning yo'qligi sababli tolalari qovushqoq emas. Asosan oq qayindan fanerlar, mebellar, egri chiziqli yog'och detallar va boshqalar tayyorlashda ishlatiladi. U yog'och o'ymakorligida kam ishlatilib duradgorlik va qurilishda keng ishlatiladi.

Oq qarag'ay – po'stlog'i yupqa, silliq, kulrang tusda, yumshoq, yengil, oson ishlanadi, biroz qoramtir dog'li, yog'ochi oqish tusda bo'ladi. U mayda ko'zli, kam yog' va kam smolali, hidi yo'q, namga chidamsiz daraxtlar sirasidan.

Oq qaragʻay koʻproq cholgʻu asboblarni yasashda, asosan qurilishda ishlatiladi. Yogʻoch oʻymakorligida qisman ishlatiladi.

Tilogʻoch – ignabarglalar turiga kiruvchi ushbu daraxt oʻta ogʻir, yogʻochi qattiq, qoramtir-sargʻish rangli boʻlib, chiroyli koʻrinishga ega. Tilogʻoch namga chidamli, qaragʻay daraxtiga qaraganda 30% mustahkam. U ortiqcha yogʻli va smolali, oʻyilishi biroz qiyinroq boʻlsa-da, chiroyli pardolzlanadi. Poʻstlogʻi qalin, yillik halqalari aniq koʻrinadi, yogʻochi mayin qatlamli. Tilogʻoch ortiqcha yogʻli va smolali boʻlganligi uchun tez chirishni oldini oladi, issiqda oʻyma yuzasidan smolasi quyilib oqib chiqadi va oʻymaning sifatini buzadi. Shu kabi nuqsonlari uni yogʻoch oʻymakorligida kam qoʻllanishiga olib keladi. U asosan qurilishda ishlatiladi.

Togʻ teragi – yaproq bargli daraxt, poʻstlogʻining rangi sargʻimtir, yupqaroq, tanasining pastki qismlarida chatnogʻi boʻladi. Togʻ teragi yumshoq yogʻochlar turiga kiradi, yogʻochiga ishlov berish oson, yengil, tanasi oqish-sargʻimtir tusda, namga chidamsiz, yillik halqalari aniq koʻrinadi. Undan turli-tuman oʻyinchoqlar, idishlar, gugurt qutisi va donalari, faner, har xil buyumlar tayyorlanadi. Qurilishda, eshik va romlar yasashda foydalanish mumkin. Yogʻoch oʻymakorligida namga chidamsizligi va juda tez chiriganligi uchun kam ishlatiladi.

Chinor – yaproq barglilar turiga kiruvchi bu daraxtning poʻstlogʻi qizgʻish-sariq tusli, tanasining rangi qizgʻish qoramtir, koʻp shoxli, mustahkam va qattiq, pishiq puxta, yupqa va silliq. Chinordan olingan materiallarga ishlov berish qiyin, yogʻochida tabiiy atlassimon gullari bor, loklanganda oʻzgacha chiroy va joziba baxsh etadi. Yogʻoch tolalari betartib boʻlganligi bois oʻymakor ustadan mahorat va sinchkovlikni talab etadi. Oʻyilganda oʻyma sifatli va pardozi nafis chiqadi. Chinordan qimmatbaho mebellar va randalangan fanerlar tayyorlanadi. Yogʻoch oʻymakorligida keng-koʻlamda ishlatiladi.

Shumtol – yaproq bargli, kam yoriluvchan, qovushqoq yogʻochli, och qizgʻish rangli, mustahkam, puxta, pishiq, tabiiy gulli, chiroyli, va egiluvchan daraxt. Uning yogʻochiga ishlov berish qiyin, silliq randalanadi va pardoatlanadi. Yillik tolalari aniq koʻrinadi, bugʻlanganda esa yaxshi egiluvchan boʻladi.

Shumtolning yog‘ochidan olingan materiallar faner tayyorlashda, vagonsozlikda, samolyotsozlikda, kemasozlikda qo‘llaniladi. Uning yog‘ochidan har xil asbob dastalari, sport buyumlari tayyorlanadi. Yog‘och o‘ymakorligida keng foydaniladi.

O‘rik – yaproq bargli daraxt. Mevali, tanasi qoramtir-qizg‘ish, qattiq va mustahkam. Uning yog‘ochidan har xil mayda buyumlar, lavh, qutichalar tayyorlashda va instruktatsiya ishlashda foydalaniladi. Yog‘och o‘ymakorligida keng ishlatiladi.

Qarag‘ay – ignabarglilar turiga kiruvchi ushbu daraxtning po‘stlog‘i qalin, to‘q jigarrang tusda bo‘ladi. Uning yog‘ochi puxta, yengil, smolali, oq-qizg‘ish, namga chidamli daraxt. Qarag‘ay tik va to‘g‘ri o‘sadi, uning balandligi 30-40 metrgacha, yoshi 120-150 yilgacha bo‘ladi. Qarag‘ay yumshoq bo‘lib, uni yorish, arralash, randalash, yelimlash, bo‘yash, loklash, ishlov berish oson. U kemasozlikda, mebel ishlab chiqarishda va duradgorlikda ishlatiladi. Yog‘och o‘ymakorligida monemuntal ishlarda keng ko‘lamda ishlatiladi.

Yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan turli xom-ashyolar o‘zining pishiqligi, nuqsonsizligi, qurt yemanganligi, rangining tiniqligi, mustahkamligi, loklansa yanada go‘zal tovlanishi, ko‘p yillar davomida yorilmasligi, buralmasligi, namga chidamliligi, pardozlanishi, o‘yishda qo‘porilmasligi va shunga o‘xshash o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yasalayotgan buyumga mos keladigan materiallardan tanlash alohida ahamiyatga ega.

2.2. Zamonaviy me'morchilik inshootlarida yog'och o'ymakorligi

Vatanimiz Mustakillikka erishgandan so'ng har jabxada ijobiy o'zgarishlar, yuksalishlar sari borayotganimiz quvonarli xoldir. Milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, ota-bobolarimiz qoldirgan boy merosni qadriga yetish va ulardan o'z hayotimizda, faoliyatimizda unumli foydalanish, ularning ruhi har doim bizga madadkor ekanligini dildan xis qilib turish bugungi biz erishgan va erishayotgan yutuqlarimizning garovi ekanligini qayd etib o'tishimiz joiz bo'lmasa kerak. Chunki bugungi kunga kelib xukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bir qator xayrli ishlarni ta'kidlab o'tish kishi ruxiyatida faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi.

Mustakillikka erishganimizdan keyingi yillarda nafakat ta'lim, savdo-sotiq, fan va texnika balki milliy hunarmandchiligimizda ham salmoqli yutuqlarga erishmoqdamiz. Milliy hunarmandchiligimiz hattoki davlat siyosati darajasigacha ko'tarilib, unga alohida e'tibor bilan yondashilayotgani bugungi kunda sir emas.

Ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan obidalar, asori-atiqalarni qayta ta'mirlash, ularga qaytadan jon, joziba va go'zallik baxsh etish, qolaversa bizdan uzoklashtirilgan, umuman begonaga aylantirib quyishga qilingan xarakatlar oralig'idagi pardalar ko'tarilib haqiqat yana qayta qaddini rostladi. Yana o'z yurtiga Alpomish, Al-Buxoriy, Al-Fargoniy, Amir Temur va yana ko'plab bizning bobokalonlarimiz qaytishdi. Ularning ruhi poklarini shod qilish, qolaversa keyingi avlodlarga yetkazish maqsadida qurilgan betimsol yodgorliklar, asori-atiqalar fikrimizning yorqin misolidir. Birgina Toshkent shahrida milliy uslubda bunyod etilgan bunday inshootlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Temuriylar Davlat muzeyi, Oliy Majlis binosi, Toshkent shaxar xokimligi, qator bozorlar va savdo rastalari, madaniyat va istiroxat bog'lari shular jumlasidandir.

Me'moriy yodgorliklar bunyod etilar ekan, albatta, o'ziga xos va mos milliy hunarmandchiligimiz bilan jozibador qilib bezatiladi. Poytaxtimizning bosh

maydoni Mustaqillik maydonining shunday yonginasida bunyod etilgan Xotira maydoni ana shunday majmualardan biridir.



Ushbu majmua milliy xunarmandchiligimizning yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatilgan bo‘lib, bir-biriga qarama-qarshi ayvondan tashkil topgan. Har ikki ayvonda ham 21 tadan o‘yma ustun o‘rnatilgan. Ustunlarning 17 tasi bir qatorga o‘rnatilgan bo‘lib, marhumlarning nomlari zikr etilgan zarxal “kitoblar” o‘rnatilgan ayvon devorining ikki tomoniga 2 tadan 4 ta o‘yma ustun o‘rnatilgan. Respublikamizning har bir viloyatlari, Toshkent shahri va Korakalpog‘iston Respublikasi uchun alohida bo‘limlardan iborat bo‘lib, motamsaro Onaning o‘ng tomonidagi bo‘lim Toshkent shahridan urushga ketgan jangchilarning nomlarini zikr etish bilan boshlangan. Ustunlar o‘ymasi 1 qavatli islami naqshlardan tashkil topgan. Pardoiz turining choka va tabaka turlaridan unumli foydalanilgan. Naqsh kompozitsiyasini asosan bandlar va gullar tashkil etadi. Keyingi bo‘limlar Xorazm va Toshkent viloyatlariga ajratilgan bo‘lib, naqsh kompozitsiyasi o‘ziga xos bo‘lsada, o‘ymani bajarish va pardoiz turlari deyarli bir xil uslubda bajarilgan.



Surxondaryo va Sirdaryo bo‘limlari esa o‘ziga xos bo‘lib, o‘ymasining chukurligi, naqsh kompozitsiyasini barglar, bargli gullar tashkil etadi. Choka va tabaka pardoz turlaridan unumli foydalanilgan.

Samarkand va Kashqadaryo bo‘limlarida ham avvalgi bo‘limlardagi kabi naqsh kompozitsiyasi barglar va bargli gullardan tashkil topgan bo‘lsada, pardoz turlarining pax, lo‘la va tabaka turlaridan keng foydalanilgan.

Ayvonning ikkinchi tomonidan Korakalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Farg‘ona, Jizzax, Namangan va Navoiy viloyat bo‘limlari joy olgan bo‘lib, har biri o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Korakalpog‘iston Respublikasi, Andijon va Buxoro viloyati bo‘limlaridagi ustunlar 1 kavatli o‘yma, kam zaminli, uncha chukur bo‘lmagan va naqshning islmiy turidan tashkil topgan. Qolgan bo‘limlarda 2 kavatli o‘ymadan o‘ta nozik did bilan foydalanilgan bo‘lib, naqsh kompozitsiyasini asosan barglar va bargli gullar tashkil kiladi. Pardozning barcha turlaridan unumli foydalanilgan.

Majmuani har ikki tomonidagi ustunlarning poyustuni, o‘rta qismi va yuqorisi, ya’ni mukarnasi bir xil kurinishda tanlanib o‘ziga xos go‘zallik kashf etib

turibdi. Ayvonning xarilari, to'sinlari, kalvamlari va vossalariga ham yog'och o'ymakorligining go'zal namunalaridan keng foydalanilgan. Navoiy viloyati bo'limiga o'rnatilgan ustunlarning birida "Asadov Mirjalol. Samarkand. 1999 yil" degan yozuvni uchratishimiz mumkin. Ko'rinib turibdiki, zamonaviy inshootlarda qo'llanilayotgan san'at turlari va aynan Respublikamizning bosh maydonidagi bunday yodgorlikni faqat yog'och o'ymakorligi bilan bezatilishi ushbu san'at turining bugungi kunda gurkirab rivojlanib borayotganligidan dalolat berib turibdi.

2.3. Muqaddas qadamjolarida yog‘och o‘ymakorligining qo‘llanilishi

Imom al Buxoriy maqbarasi

Yurtimizda ulug‘ allomalar yashab o‘tganligi, ular qoldirgan boy ilmiy meros islom ta‘limoti asosi hisoblangani bois Alloh nazari tushgan zamin, deb e‘zozlanib, mag‘ribu mashriqdan ziyoratchilar tashrif buyurmoqda.



Mamlakatimizda buyuk ajdodlarimiz merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, muqaddas qadamjo va tarixiy obidalarini obod etishga alohida e‘tibor qaratilayotgani boisi ham shundan.

Bundan o‘n besh yil avval Imom Buxoriy qadamjosi Prezidentimiz Islom Karimov loyihasi va raxbarligida tubdan qayta qurilib, obod qilingandi. To‘rt gektardan iborat maydonda muxtasham majmua, tarkibida ma‘naviyat markazi va ziyoratchilar uchun e‘tiqod maskanlari yurtimiz me‘morlari va usta naqqoshlari tomonidan jilo topdi. Imom al Buxoriy yodgorlik majmui — Samarqanddagi me‘moriy yodgorlik, ziyoratgoh. Imom al Buxoriy dafn etilgan. Chelak tumani Xartang qishlog‘idagi qabrston musulmon axlining eng tabarruk va aziz ziyoratgoxlaridan bo‘lib kelgan. 16-asrda Imom al Buxoriy kabri ustiga mo‘‘jazgina makbara, yoniga masjid qurilib, hovlisiga bir necha tup chinor ekilgan. Lekin sho‘ro tuzumi davridagi dahriylik siyosati tufayli bu maskan karovsiz ahvolga tushib qolgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng


Imom al Buxoriy kabi butun umrini iymon va e'tiqod, ilm ma'rifat, diyonat yo'lida baxshida etgan ulug' zotlar xotiralarini e'zozlash, ular nomlari bilan bog'lik joylarni obodonlashtirishga alohida e'tibor berila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 29 apreldagi «Imom al Buxoriy tavalludining hijriy qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida»gi qarori asosida allomaning maqbarasi o'rnida maxsus yodgorlik majmui barpo etildi. Bu yodgorlik majmui O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida yaratilgan loyiha asosida Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Andijon, Namangan, Qo'qon, Shahrisabz xalq ustalari tomonidan 1998 y.da qurildi.

Majmua avvalambor ziyoratgoh, muqaddas qadamjo, so'ng kundalik, juma, hayit namozlari o'qiladigan joy vazifasini o'taydi. Bu yerda hadis ilminm o'rganish va boshqa ma'rifii ishlarni amalga oshirish ham ko'zlangan.

Majmuining bosh rejasini tuzishda an'anaviy milliy me'moriy yechimlar (peshtoq, ravoq, gumbaz, ayvon va boshqalar) asosida barpo etilgan binolar (maqbara, masjid, ma'muriy va boshqa inshootlar) ning hovli atrofida shakllanishi ko'zda tutilgan. Majmua oldidagi ma'muriy binoning (o'lchami 106,0×12,0 m) bosh tarzi jan.ga qaragan.

Yodgorlikka uchta peshtokli, o'ymakor eshikli darvozaxonalar orqali kiriladi. Asosiy darvozaxonaning oldi va hovli tomonidan an'anaviy uslubda mahobatli peshtoq ishlangan (o'lchami 12,0×14,6 m). Miyonsaroy diametri 10,5 m li moviy gumbaz b-n yopilgan. Old peshtoqning ikki tarafida mohirlik b-n ishlangan koshinlar orasiga arab va lotin alifbolarida yodgorlikning qurilishi haqida ma'lumot beradigan lavha o'rnatilgan. Ikki kanotdagi nisbatan kichik peshtoqli darvozaxonalar (gumbazining diametri 6,0 m) binoning mutanosib ravishda yaxlitligini saklagan holda unga o'ziga xos salobat baxsh etadi. Katta darvozaxonaning o'ng tarafida ma'muriy va b. yordamchi xonalar joylashgan. Bosh yo'lining o'ng tarafida favvora qurilgan. Undan chapda, masjid tarafda qadrosлагan chinorlar va hovuz saqlanib qolgan. Hovli sahnidagi yo'laklar chorsi shaklidagi ohaktosh g'ishtlar b-n qoplangan.



Majmua mujassamotining markaz o'qi Imom alBuxoriy maqbarasida o'z yakunini topgan. Maqbara murabba shaklida qurilgan bo'lib, o'lchami 9,0×9,0 m, balandligi 17,0 m. Maqbara devori zangori, havo rang va oq sirli kesma koshinlar, marmar, oniks va granit toshlar bilann qoplangan. Koshinlar garih shaklida terilib, orasida bezakka uyg'unlashtirib arabcha xatda hadislar bitilgan. Sathni bezashda bir- biriga o'xshash shakllardan mohirlik bilan foydalanilgan. Ichki bezagida ganchkorlik, bo'yama naqsh va turli rangdagi koshinkori naqshlar ko'shilib, uyg'unlashib ketgan. Tashqi gumbaz Amir Temur maqbarasi gumbaziga o'xshash — qobirg'alidir. Gumbazning ichi doira shaklida bo'lib, rangbarang serjilo naqshlar bilan bezatilgan. Maqbara markazida oqishko'k shaffof oniks toshdan ishlangan sag'ana o'rnatilgan. Maqbaraning o'ng tomonidagi eshikdan zina orqali maqbaraning ostki qavatiga — daxmaga tushiladi. Yuqori qavatdagi sag'ananing

aynan ostida Imom Al Buxoriy jasadlari qo'yilgan qabr marmartosh bilan qoplangan. Hovlining chap tomonida masjid joylashgan. Masjid — xonaqrahning umumiy maydoni 786 kv.m. Peshayvonining umumiy maydoni 214 kv. m. Xonaqohva peshayvonda 1500 ga yaqin kishi namoz o'qishi mumkin. Hovlining o'ng qanotida ham peshtoqli va miyonsaroyli bino bor. Miyonsaroy gumbazi ham boshqa gumbazlar bilann bir xil shaklda va o'lchamda qurilgan. Bu binoda kutubxona, ilmiy xodimlar xonasi va b. yumushlarga mo'ljallangan xonalar mavjud. Bularning umumiy mayd. 946 kv. m. Peshayvonining mayd. 110 kv.m. Kutubxonada Qur'oni karimning noyob qo'lyozmalari, turli nashrlari, Imom al Buxoriy asarlarining nashrlari va boshqa kitoblar bor. Majmua to'rida — maqbaraning orqa tarafida hadis ilmini o'rganishga mo'ljallangan o'quv markazi — «Dorul hadio binosi joylashgan.

Majmua bilan birga ushbu hududda keng ko'lamli qurilish-obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Yangi maxalla markazi, savdo va xizmat ko'rsatish shox-obchalari tashkil etildi. Sayyoxlarga zamonaviy servis xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Yo'llar kengaytirilib, atrofi obod qilindi.

Bugun ushbu tabarruk va obod maskanga tashrif buyuruvchilar xalqimiz bunyodkorlik salohiyatining yorqin namunasi bo'lgan ushbu majmuani hayrat va xayajon bilan ziyorat qilmoqda.

Bu yerda saqlanayotgan Qur'oni Karim, hadislar to'plami, Imom Buxoriyning «Al-jom'e as-saxix» kitobidan ko'chirilgan noyob nusxalarini katta qiziqish bilan tomosha qilishayapti. Ziyoratgoxni bir ko'rish orzusida kelayotganlar e'tiqodi mustaxkamligi, hadis ilmi sultoni, muxaddislar muxaddisi Imom Buxoriy bobomiz ma'naviyati sarchashmasidan nur olmoqni sharaf, deb bilishmoqda.

Xozirda ulug' alloma nomidagi majmua joylashgan mavze Xo'ja Ismoil shaxarchasi deb atalmoqda. Ziyorat baxona bir mo'jizani ko'rsalar, obod manzillardan ko'ngillar shod bo'lsa, inson saodati umr ziynatiga monand baxtiyorlik ato etadi. Yana bir jihati, istiqlol sharofati bilan fayzgga to'lgan majmua

yosh avlodni yuksak insoniy fazilatlar ruxida tarbiyalash, ular qalbida ajdodlarimiz bilan faxrlanish xissini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Bahouddin Naqshband maqbarasi.

XVI asr. Bahouddin Naqshband 1318 yili Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida tug'ilgan. Bahouddin Said Amir Kulol, Qusam shayx, Xalil ota kabi o'sha davrning eng yirik turkigo'y va forsigo'y mutasavvif olimlar qo'lida ta'lim olgan.

O'zidan oldin o'tgan Yusuf Hamadoni (XI - XII asrlar), Hoja Abduxoliq G'ijduvoni (XII asr) tomonidan yaratilgan xojagon tariqatini tadrijiy davom ettirib, XIV asr shart-sharoitlariga moslagan holda "naqshbandiya" tariqatini yaratdi. Qisqa muddat ichida bu tariqat avval Movarounnahrda yoyildi, undan qo'shni islom mamlakatlariga o'tdi.



Hozirgi Kogon tumanining Qasri Orifon qishlog'ida dafn etilgan Bahouddin Naqshband (1389 y) qabrining ustiga 1544 yili Buxoro xoni Abdulaziz I maqbara qurdirgan. Majmua mustaqillik yillarida qayta ta'mirlandi. 1993 yilda Xoja

Bahouddin Naqshband hazratlarining 675 yillik yubiley tantanalari keng nishonlandi.

Mahdum Eshon Masjidi

Mahdum eshon masjidi - Namangan shahrining Margʻilon (Sim) koʻchasida joylashgan. Bu hashamatli binoning birinchi navbati 1908 yilda Mulla Buvaboy mablagʻi hisobiga usta Ismatilloh boshchiligida qurilgan. Xonaqosi oʻlchamlari 12 x 18 x 2,7 metr. Keyinchalik uning atrofiga qoʻshimcha bino tiklandi. Umumiy hajmi 30 x 45 metr, keyinroq esa 2-qavat qurildi. Har ikki qavatning balandligi 6 metr. Keyingi navbat qurilishi Mulla Yoʻldoshboy tomonidan bajarilgan. Xonaqoh ganchkorlik va naqqoshlik sanʼati bilan birmuncha soddaroq bezatilgan. Mehrob tepasiga Qurondan oyatlar bitilgan. Mahdum Eshon masjidining tashqi oynabandli ayvon majmui yogʻoch oʻymakorligining yuksak namunasi hisoblanadi. Bino qurilishida asosan yogʻoch ishlatilib, atrofi ravon holida yopilgan. Baland gumbazli darvozaxona (15 x 4 metr) asosiy kirish yoʻli hisoblanadi. 1957-58 yillarda mahalliy fuqarolarimiz va namozxonlarimizning saʼy-harakatlari bilan masjid qaytadan taʼmirlangan.

1928 yilgacha masjid sifatida faoliyat koʻrsatgan. 1943 yil diniy muassasalar qayta tiklangan paytdan boshlab, davlat ruhsati bilan masjid sifatida qayta tashkil etildi va hozirgi kunga qadar faoliyat koʻrsatib kelmoqda.



Masjidda uzoq davrlar mobaynida ulug‘ ulamolardan marhum Abdukarim hoji domla, Mulla Hoshimxon qori domla va Yahyoxon to‘ra domla xizmat qilib kelishgan. Masjidga jome’ maqomi berilgan bo‘lib, juma va iyd namozlari, hamda nikoh o‘qiladi.

Shahidlar xotirasi yodgorlik majmui

Shahidlar xotirasi yodgorlik majmui – toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi Bo‘zsuv kanali bo‘yida joylashgan.



Majmua barpo etilgan joy XX asrning 20-yillariga qadar Toshkent shahrining xilvat chekkasi bo‘lgan, 40-yillarda huddi shu joydagi 3 ta qatlgohda sho‘rolar tomonidan millatning ilg‘or vakillari, begunoh vatandoshlar qatl qilingan.

Majmua markazida tik ustunlarga o‘rnatilgan feruza rang qovurg‘ali gumbazli ayvon (bal. 27 m) metall qurilmalardan ishlanib gozg‘on marmari bilan qoplangan, poygumbazi ganchkori muqarnaslar bilan ziynatlangan; gumbaz ichi ganch o‘ymakorligida ishlangan.

Qatag‘on qurbonlari xotirasiga bag‘ishlab sobiq qatlgoh o‘rnida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan bunyod etilgan (2000 y). Maydoni 17 gektardan ortiq muntazam

tartibli loyihalangan, yam-yashil, pastu baland hududni Boʻzsuv kanali ikkiga ajratgan, ikki qirgʻoqni kanal ustiga qurilgan koʻprik (uzunligi 100 m) birlashtiradi.



Gumbaz ostidagi handasaviy shakllardan naqshlar hosil qilib bezatilgan marmar polda nefritdan ishlangan ramziy sagʻana atrofga sukunat taratib turadi; sagʻana shahid ketgan vatandoshlarning ramziy qabridir.

Shuningdek, 2002 yilda shu hududda qad koʻtargan “Qatagʻon qurbonlari xotirasi” muzeyi majmuaning tarkibiy qismiga kiradi.

Mulla qirgʻiz madrasasi

Mulla qirgʻiz madrasasi- Namangan shahrining Chorsu maydonidagi meʼmorchilik obidasi boʻlib, u 1910-1912 yillarda Mulla Qirgʻiz Mashrabboy oʻgʻli mablagʻi hisobiga barpo etilgan. Madrasa binosi tarxda notekis besh qirrali koʻrinishga ega boʻlib, uning bunday shaklda loyihalanishiga u joylashgan er maydoni notekisligi sabab boʻlgan. Yodgorlikning bosh fasadi ikki qavatli, qolgan qismi esa bir qavatli qilib qurilgan. Hovliga kirilgach, oʻng tomonida gumbazli darsxona hamda masjid joylashgan. Madrasa binosini bezatishda asosiy eʼtibor

bosh fasadga qaratilib, u ikki qavatli qilib, o'rtasida baland va ko'rkam peshtoq, uning ikki yonida ikki qavatli ravoqli hujralar, burchagida esa aylana shaklidagi guldastalar tartibli joylashtirilgan. Peshtoq timpani, yarim sakkiz qirrali ravoq ichi, guldastalari turli rangdagi koshinlar bilan bezatilgan.



Darhaqiqat, Mulla Qirg'iz Oxund tomonidan qurdirilgan madrasa undan yodgorlik sifatida qolib, uning nomini abadiylashtirib turibdi. Peshtoq yuzasi hamda uning ichiga choksiz qilib terilgan sirkorlik usuli qo'llanilgan bo'lib, u Farg'ona vodiysi yodgorliklariga xos bo'lgan oq, zangori, havorang, sariq, ko'k va och ko'k rangdagi koshinlarni tashkil etadi. Ayniqsa, madrasaning o'ng tomonida joylashgan darsxona hamda masjidning qurilish usuli, tashqi hamda ichki me'moriy ko'rinishi diqqatga sazovordir. Ular ustiga bahaybat gumbazlar ishlanib, gumbazlar ustiga esa, xona ichkarisiga yorug'lik tushib turishi uchun hashtaklar o'rnatilgan. Ularni hovli fasad devorlari yuqorisiga hamda gumbaztag ostiga g'ishtlardan bo'rttirib arabiy yozuvda Quron oyatlari kufiy uslubda bitilgan.

Mulla Qirg'iz madrasasining tiklanishida Mirzadadavoy va Toshboltaboy ustalar tomonidan tayyorlangan to'g'ri burchak shaklidagi g'ishtlar, Namangansoyning qirg'og'ida joylashgan Oydinko'l hududiga g'ishtxumdon qurib, etkazib berib turishgan. Madrasa peshtoqiga yopishtirilgan barcha koshinlarni Mulla Mamasiddiq, Abdurahmon, Abduqahhor va Mamadali kulollar yodgorlik hovlisida xumdon qurib pishirib tayyorlaganlar. Madrasaning

gumbazlari, hujralari qadimiy O'rta Osiyo me'morchiligiga xos an'analarga muvofiq (ravoq) uslubda pishiq g'ishtdan ishlangan. Old fasadi esa, shaharning qadimiy Uychi ko'chasida, shahar hokimi Saidqulibek tomonidan qurilgan Saidqulibek madrasasiga qaratib barpo etilgan. (Bu madrasa binosi XX asrning 40-yillarida buzib tashlangan). Madrasa hovlisini hozirda 41 hujra va 4 ta gumbaz o'rab turadi. Hujralar soni aslida ko'proq bo'lgan va ular sho'rolar davrida turli maqsadlarda foydalanishga moslashtirish jarayonida buzib tashlangan. Madrasa aslida ikki qavatli qilib qurilishi lozim edi. Lekin old fasadigina ikki qavatli qilib qurilgandan keyin qurilish ishlari to'xtab qolgan.

Madrasa gumbazlarining ishlanishi o'ziga xos uslub bilan bajarilganki, bu ustaning mahoratidan darak berib turibdi. Gumbazlarning ichi aslida o'yma terrakota va naqshlar bilan bezatilishi, go'zal harflar bilan oyatlar yozilishi kerak edi. O'sha paytdagi chor huqumatining mustamlaka o'lkalarda olib borayotgan siyosati oqibatida kelib chiqqan alg'ov-dalg'ovlar tufayli madrasa qurilishi ham nihoyasiga etkazilmay qolib ketdi. Tarixiy manbalarga, arxiv fotosuratlariga, nuroniy qariyalarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, o'z davrida madrasa tevarak-atrofida ko'plab me'moriy inshootlar: madrasa, masjid, karvonsaroy, hammom, minora, savdo rastalari, hovuz, maqbara va boshqa ko'plab obidalar mavjud bo'lgan. XX asrning 30-yillarida boshlangan yodgorliklarga qarshi kurash, mamlakatdagi siyosiy ahvol shaharni qayta tiklash, zilzilalar va boshqa turli sabablarga ko'ra, Mulla Qirg'iz madrasasi ro'parasidagi ko'p gumbazli mahobatli Saidqulibek madrasa binosi butkul buzib tashlandi. Keyinchalik esa, madrasa binosiga qarashli va unga tutash bo'lgan vaqf hovli, hammom, hovuz, minora, masjidlar turli idora va tashkilotlarga foydalanish uchun berib yuborildi.

Andijon temir yo'li qurilishi munosabati bilan Namangan viloyatida mahsulot bozorini kengaytirish maqsadida Paxta tozalash zavodlari qurilishi keskin ko'payib bordi. 1903 yilga kelib, Namangan va uning atrofidagi tumanlarda 16 ta paxta tozalash zavodlari qurildi. Shunday zavodlardan birining xo'jayini Mulla Qirg'iz Mashrabboy bo'lgan. O'sha paytlarda badavlat kishilar, katta mulk egalari, amaldorlar, savdogarlar o'z mablag'lariga masjid, madrasa, ko'prik kabi turli-

tuman binolar bunyod ettirganlar. Mulla Qirg'iz Mashrab- boy aslida O'sh viloyati, Aravon tumanidan Namanganga kelib qolgan bo'lib, o'sha yillari Namanganda yirik paxta tozalash zavodi xo'jayini va shu bilan birga, katta er hamda mulk egasiga aylangan edi. U savobli ish qilishni mahalliy xalq orasida katta hurmatga, obro'- e'tiborga erishishni niyat qilib biron bir ko'zga ko'rinarli ish qilish maqsadida o'ziga yaqin kishilardan bo'lmish Mullaboy hoji, Mulla Qozoqoxun, Qozoqboyvachcha, Otakarvon va Mulla Madamin Oxunlar bilan yig'ilishib, maslahat tarzida kengash o'tkazib, madrasa qurmoqchi ekanligini aytadi. Tabiiyki, bu fikr o'z yaqinlariga ma'qul bo'ladi.


Pahlavon Mahmud majmuasi

Pahlavon Mahmud majmuasi (Polvon ota maqbarasi) – Xivadagi me'moriy yodgorlik(XVIII-XIX). Maqbara majmuasining umumiy hajmi 50 x 30 m bo'lib, dastlab Pahlavon Mahmud qabri ustiga 1664 yilda mo'jaz sinchkor imorat qurilgan. Darvozaxona eshigidagi yozuvga ko'ra, Pahlavon Mahmud majmuasining qurilish sanasi 1701 yilda Shohniyoxyzon qurdirgan vaqtdan boshlab hisoblanadi. 1825-1835 yillarda uning o'rnida g'ishtin toqu ravoqli serhasham maqbara (17,5 x 25,5 m), ziyoratxona (9 x 9 m) va xonaqoh (4 x 4 m) qad ko'targan.

Keyinroq Xiva xonlari (Abulg'ozixon, Shohniyoxyzon, Muhammad Rahim I, Temurg'ozixon) ham shu yerga dafn etilgan. 1913 yilda usta Qurbonniyoz boshchiligida hovlining g'arb tomoniga ikki oshyonli qorixona, qarshisiga o'ymakor ustunli ayvon qurilgan. Majmuaga janub tomondan darvozaxona orqali kiriladi.

Pahlavon Mahmud (Puryoyvaliy, Qitoli) (1247 – 1326, Xiva) – shoir va mutafakkir. Fors tilida ijod qilgan. Po'stindo'zlik, telpakdo'zlik bilan shug'ullangan. Hindiston va Eronda polvonlikda dong taratgan. Shunga ko'ra Pahlavon Mahmud deb atalgan. Fors va turkiy xalqlar adabiyotida Umar Xayyomdan so'ng faqat ruboiy yozgan shoir Pahlavon Mahmuddir.

Pahlavon Mahmud majmuasida XIX asr Xiva me'morligi uslubi yorqin namoyon bo'lgan.



Imom Moturidiy yodgorlik majmui

Imom Moturidiy yodgorlik majmui – Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Imom al-Moturidiy (870-944) tavalludining 1130 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan Samarqand shahri markazidagi oldinlari "Chokardiza" qabristoni o'рни bo'lgan joyda bunyod etilib, ramziy maqbarasi o'rnatilgan (4 gektar).

Yodgorlik Registon ansambli yaqinida, Vobkent, Gijduvon va Buxoro ko'chalari oralig'ida joylashgan. Bosh kirish qismi Vobkent ko'chasidagi xiyobon orqali. Loyihaga ko'ra 3 qism (markaziy, bog' va xo'jalik inshootlari)ga bo'lingan, ular o'zaro bir-biri bilan xiyobonli yo'lka orqali bog'langan.

Loyiha o'qi manzarali mujassamlikda yaratilib, ramziy maqbara binosiga tutashgan. Sharsharali favvoralar xiyobonli yo'lka markazida qurilib, atrofi obodonlashtirilgan. Yodgorlik me'moriy loyihasi va badiiy yechimida o'zbek milliy mahobatli san'atining eng yaxshi an'analari qo'llanilgan. Maqbara pishiq

gʻishtdan, murabba tarhli (12 x 12 m), shifti gumbazli (balandligi 17,5 m), poygumbazi 24 kichik ravoqchalarga boʻlinib, ganchkori panjaralar bilan bezatilgan. Panjaralar yuqorisi murakkab tuzilishdagi muqarnaslar bilan toʻldirilgan. Xona markaziga qoʻyilgan sagʻanada arab yozuvida buyuk olimning Xadis soʻzlari bitilgan.




Haqqulobod masjidi

Haqqulobod masjidi - obida simmetrik kompozitsiyaga ega boʻlib, Eyloton madaniyati oʻchoqlaridan boʻlmish Kultepa arxeologik yodgorligi oʻrnida qad rostlagan Haqqulobod shahri markazida joylashgan. Bu masjid 1903 yilda usta Abdurahmon tomonidan qurilgan. Ichki devorlari ganch oʻymakorligi naqshlari bilan bezatilgan. Binoning shiftidagi, vassajuftlaridagi naqshlarni chizishda turli rangdagi moyli boʻyoqlardan foydalanilgan. Yogʻoch ustunlarda yogʻoch oʻymakorligi namunalari uchraydi. Hozirgi kunda bu erda tuman oʻlkashunoslik muzeyi va bolalar kutubxonasi faoliyat olib bormoqda.

Masjid binosi zal va sharq tomonga qaragan uch tomonli ayvondan tashkil topgan. Binoning tomi tekis tom boʻlib, uch qator qilib oʻrnatilgan 26 ta ustun yordamida yopilgan. Uch ustunli toʻgʻri burchakli zalni 4 ta mehrob egallagan.

gʻarbga qaragan 4 ta mehrobning uchasi ayvonda joylashgan. Masjid binosi 43 x 12,5 metr, zal esa 14 x 7 metr oʻlchamda qurilgan boʻlib, tashqi tomondan somon suvoq, ichki tomondan ganchli suvoq qilingan.



Masjid respublika toifasidagi meʼmoriy obidadir. Yerosti suvlari koʻtarilishi tufayli masjid binosi zaxlab, nurab bormoqda. Hozirda tuman hokimligi tomonidan taʼmirlash ishlari olib borildi. Tuman tarixi muzeyi sifatida xalqimizga xizmat koʻrsatmoqda.

«Minor» jomeʼ masjidi

Toshkent shahri markazida joylashgan «Minor» jomeʼ masjidi 2013 yilda qabul qilingan «Toshkent shahrining Minor mahallasi hududida masjid barpo etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi Prezident qaroriga binoan barpo etilgan.



Masjid bir paytning oʻzida 3 mingdan ziyod namozxonni bagʻriga sigʻdira oladi. Masjidning bosh binosi – ikki qavatli xonaqoh, ikkita peshtoq, balandligi 38 metr boʻlgan ikkita minora va bir gumbazdan iborat. Masjid hovlisining ikki tomonida milliy yogʻoch oʻymakorligi uslublarida bezatilgan ustunlar oʻrnatilgan. Boʻzsuv yoqasigacha koʻrkam maysazorlar va xiyobon yaratilgan.

XULOSA

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalarida bo'lganidek amaliy san'atga, shu jumladan yog'och o'ymakorligini ham rivojlantirishga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Muqaddas qadamjolarimiz hisoblangan Imom Buxoriy majmuasi, Imom Moturudiy majmuasi, Iso at-Termiziy va Al-Hakim at-Termiziy majmualarida yog'och o'ymakorligining qadimgi va hozirgi usullaridan foydalanilayotganligi ham buning yorqin isbotidir.

Yog'och o'ymakorligi asarlari nafaqat moddiy madaniyat shu bilan birga ma'naviy madaniyat va qadriyatdir. Muqaddas qadamjolarimizga borar ekanmiz, u yerda ma'naviy – ruhiy quvvat olamiz. Ajdodlarimiz uchun qurilgan majmualar bilan faxrlanamiz, ularga munosib voris bo'lishga harakat qilamiz. U yerdagi amaliy bezak san'atlari zavqlantiradi, estetik olamimizni boyitadi. U yerda inson ko'rganlari, bilganlari, his qilganlari kishi ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyg'usiga ta'sir etib, ular ongini boyitadi, ahloq – odobini ezgulik sari yetaklaydi. Ko'zi bilan ko'rganlari uni go'zallik sirlaridan bahramand qilsa, qalbi bilan his qilganlari uni iymonini qo'zg'atib, e'tiqodini baquvvat qiladi va insonlarni o'z oldiga ezgu maqsadlarni qo'yib ularni amalga oshirish uchun intilishga, harakat qilishga undaydi. Shuningdek yog'och o'ymakorligi amaliy san'at sifatida inson ma'naviyati va madaniyatida samarali xizmat qiladi. Insonning botiniy va zohiriy olamiga ezgulikka, go'zallikka intilish, ahloq-odobli, did-farosatli bo'lishga hamda jismoniy va aqliy barkamol bo'lishi uchun moddiy, ma'naviy, estetik ozuqa bo'ladi. Yoshlarni mehnatsevar, tirishqoq, qobiliyatli qilib tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Respublikamiz mustaqillikga erishgan kunidan boshlab boy tarixiy, madaniy merosimiz keng ko'lamda o'rganila boshlandi. Prezident I. Karimov aytganlaridek: <<Jamiyatimizdagi yangilanish va islohatlar tufayli dunyo sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan yuksak ma'naviyat ahloqiy madaniyat, chiroyli milliy an'analарimizdan foydalanish imkoniyati ochildi>>.

Men o`z bitiruv malakaviy ishimni xozirda eng muhim masalalardan biri o`sib kelayotgan yosh avlod ma`naviyatini shakllantirish va komol toptirishdir, shuning uchun ham men hozirgi kunda jadallik bilan rivojlanib kelayotgan, va shu bilan birga o`zida an`analarimizni saqlab qolgan yog`och o`ymakorligi san`atini tanladim. Yog`och o`ymakorligi san`ati o`zining nafisligi va go`zalligi bilan boshqa san`at turlaridan ajralib turadi. Hozirgi kunda bu san`atga bo`lgan qiziqish kundan kunga o`sib bormoqda qiziquvchilarning aksariyati yoshlarni tashkil etishi albatta quvonarli hol. Yog`och o`ymakorligi san`ati yoshlarni mustaqil fikrlashga, sabr toqatli bo`lishga va vatanimiz urf odatlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu esa yoshlarimiz qalbida vatanimizga bo`lgan mehr muhabbatni yanada oshiradi. Men o`z bitiruv malakaviy ishimda yog`och o`ymakorligi san`atining tarixini va bugungi kundagi zamonaviy ko`rinishlarini o`rganishga harakat qildim. Bu davr mobaynida men shumga amin bo`dimki , yog`och o`ymakorligi san`ati tarixni va zamonaviylikni o`zida mujassam etgan san`at turidir.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston", 1992.
2. Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atni yanada rivojlantirishning davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'larisida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31 mart farmoni "Xalq so'zi" gazetasi. – T. 1997 yil 1 aprel. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-t. T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-j. T: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-j. T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan 4-j. T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-j. T.: O'zbekiston, 1997.
8. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.T.: O'zbekiston, 1997.
9. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq, 1998.
10. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq millatni-millat qilishga xizmat etsin. T.: O'zbekiston, 1998.
11. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: Sharq, 1999.
12. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.T.: O'zbekiston, 2000.
13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
14. Akilova K. B. Narodnoe dekorativno- prikladnoe iskusstvo Uzbekistana XX vek. Tashkent. 2005 god.
15. Azimov I. O'zbekiston naqshu-nigoralari. –T. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987. -132 b.
16. Axmedov M. Yog'och o'ymakorligi. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2007.
17. Abduqodirov A. "Obidalar jilvasi". – T., "O'zbekiston" 1972 yil 64-b

- 18.Bulatov. S.S.O‘zbek xalq amaliy be‘zak san’ati. Toshkent.1991 yil.
- 19.Bulatov S.S., P.P. Shabaratov . M.A. Rasulov. “Naqqoshlik” “Iqtisod--Moliya” – 2010.
- 20.Bulatov S.S., P.P. Shabaratov N. A. Mansurov. “Naqqoshlik” “Fan va texnologiya” – 2010. (uslubiy qo‘llanma).
- 21.G‘ulomov K. “Ashyolarga badiiy ishlov berish”. – T., “Bilim”, 2004.
- 22.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.1-2.-T., O‘zMU nashriyoti, 2000-2001.
- 23.www.ziyonet.uz
- 24.www.tdpu.uz